

KIRISH

Barchamizga ma'lumki, mamlakatimizda islohotlar davrida jamiyat ma'naviyati asosi sanaladigan adabiyotga e'tibot davlat siyosati darajasiga ko'tarilmoqda va kitobxonlikka alohida e'tibor berilmoqda. "O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 3-aprel kuni yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish, xotin-qizlar bandligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan 5 ta tashabbusni amaliyotga joriy etildi"¹. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish chora-tadbirlar dasturi loyihasi to'rtinchi tashabbus maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan. Ushbu tashabbus zahirida yoshlarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, adabiyotni tahlil qila olish, tegishli xulosalar chiqarish, yoshlar tafakkurini kengaytirish maqsad qilib olingan.

Muxtaram 1- Prezidentimizning 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi qarori² qabul qilingandan so'ng, chet tillarni, ayniqsa, ingliz tilini o'rganish davr talabiga va ehtiyojiga aylandi. Chet tillarini o'rganishga qaratilayotgan e'tibor va talabni inobatga olgan holda ingliz adabiyotining nodir namunalaridan turli xil asarlarni o'qish va ulardan ma'naviy ozuqa olish, tahlil qilish va amalda qo'llash, jahon adabiyotidan bahramand bo'lish, ularni sof ingliz tilida o'qib tushunish va o'zbek kitobxonlariga yetkazib berish hozirgi kunning dolzarb vazifasidir.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I. A. Karimov to'g'ri ta'kidlaganlaridek, "Xalqimiz sarchashmalarining ko'zlari qaytadan ochilganligi, jahon madaniyati yutuqlariga zo'r hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning madaniy va ma'naviy merosining teranligi va chuqurligi anglab olinganligi, har bir avlodning o'z o'tmishiga, oliyjanob milliy va diniy an'analariga hurmat bilan qarash, ularni asrab-avaylash ruhida

¹<https://www.gazeta.uz/oz/2019/04/03/5-tashabbus/>

²Karimov I.A "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 1875PQ. 2012. "Ma'rifat" gazetasi № 99. –B.1-2.

tarbiyalanayotganligi- mana shuning hammasi bizning yangilanish va xalqimizning milliy o'zligini anglashini oshirish borasidagi siyosatimiz mana shu zaminga tayanadi”³

Adabiyot bu san'atdir. Asrlar davomida ming-minglab insonlarning qalbiga yo'l topa olgan badiiy asarlar, she'riyat namunalari, dostonlar, poesyalar va sahna asarlarini o'zida mujassam etgan jahon xalqlarining bebaho boyligidir, uni asrab avaylash, o'rganish, tegishli xulosalar chiqarish, ushbu tushunchalar asosida ma'naviyatimiz va dunyoqarashimizni shakllantirish biz yoshlarning vatanimiz oldidagi ham farzimiz, ham qarzimizdir.

Biz bilamizki, XIX-XX asrlarda jahon adabiyotining noyob namunalari yaratildi. Har qanday san'at asari zamon va muhitga bog'liq holda maydonga keladi. Chunonchi, ingliz xalqining ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz bergan o'zgarishlar, ya'ni burjuaziya qoldiqlarining yemirilishi, sanoat inqilobining boshlanishi va qaror topayotgan yangi muhit adabiyot rivojiga ta'sir etmay qolmadi. Davr va muhit ruhiyatini aks ettirish, yangi mavzularni kashf etish yo'lidagi izlanishlar adabiyotga yangi tamoyillarni vujudga keltiradi, mazmun va shakl jihatdan yangicha she'riyatning shakllanishiga zamin hozirladi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishi avvalida yurtboshimizning “Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch” asarida ushbu g'oyani ilgari surib quyidagi fikrlarni bayon qilganini eslatib o'tish o'rinlidir. “Agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalombor buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak. Nega deganda, ulug' adib Cho'lpon aytganidek, adabiyot yashasa-millat yashaydi.”⁴

Mavzuning dolzarbligi. Ingliz tilida yozilgan badiiy asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilish va shu orqali kitobxonlarga amerika adabiyoti durdonalarini borligicha yetkazib berish.

³ Karimov I. A, “O'zbekiston iqtisodiy islohotni chuqurlashtirish yo'lida”, -- Toshkent: O'zbekiston, 1995, 140-bet.

⁴ Karimov I.A. “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”. – T., 2008.

Bitiruv malakaviy ishining asosiy obyekti va predmeti. Bitiruv malakaviy ishimizning obyekti asarning o'zi ya'ni "Shamol ortidan yugurib" asari hisoblanib, ishning subyekti esa asardagi stilistik vositlar, ayniqsa, metaforalarning o'zbekcha tarjimada berilishini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Mazkur bitiruv malakaviy ishini yozishdan maqsad o'zbek va ingliz tilidagi asarlarning tarjima jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklari, uning nafaqat tarjima nazaryasi balki stilistika, tilshunoslikning ayrim muammolari bilan bog'liqlini o'ranish va aynan asarda berilgan stilistik vositalardan metafralar va ularning tarjimalari bilan ishlash jarayonida yuzaga keladigan kamchiliklar va nuqsonlarni yoritib berishdan iborat. Tadqiqotimiz maqsadi oldimizga quyidagi vazifalarni qo'yishni taqazo etdi:

- Xolid Husayning "Shamol ortidan yugurib" asarini o'rganish;
- Asarda berilgan obrazlarni o'rganish va tahlil qilish;
- Asardagi stilistik vositalar va ularning tarjimasi bilan ishlash;
- Metaforalar va ularning o'zbekcha tarjimada berilishini o'rganish;
- Tarjimaning xato va kamchiliklari ustida ishlash

Bitiruv malakaviy ishning o'rganilganlik darajasi. Ushu ishimiz o'zbek tilida qilinayotgan tadqiqotlardan biri bo'lishi bilan bir qatorda hali o'rganilmagan asarlar sirasiga kiradi. Shu bilan birga o'rganish soxasiga ko'ra mazkur ilmiy ish nafaqat tarjima soxasiga vaholanki bir vaqtning o'zida stilistika soxasiga ham borib taqalishi ishning mutlaq yangi soxadan o'rganish kerak ekanligini anglatib keladi. Xolid Husayniy ijodiga qiziqish XX asrda boshlangan. Ingliz adabiyotining taniqli yozuvchilardan Hebegar Alfred, Tomas Jonson va H. Far kabi yozuvchilar o'zlarining maqolalarida hamda asarlarida ilk bor munosabat bildirdilar. Hebegar Alfredning "Holid Husaynning hayoti va ijodi" asarida uning asarlari va hayotini o'rganib chiqadi⁵. O'zbek tilida esa ushbu asar Rustam Jabborov tomonidan tarjima qilingan.

⁵ Habeggar Alfred, "The life of Emily Dickenson", - New York, 2001.

Bitiruv malakaviy ishning yangiligi. Makur ish asardagi metaforalarning ishlatilishi, tarjimada berilishi yuzasidan qiyoslash olib borish va tarjima jarayonida yuzaga kelgan kamchilik va nuqsonlarini o'rganib tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot natijalarining amaliy va nazariy ahamiyati. Tadqiqotning amaliy va nazariy ahamiyati hozirgi aloqalar har tomonlama kengayib borayotgan davrda, diqqatga havola etilayotgan ushbu malakaviy bitiruv ishi katta amaliy va nazariy ahamiyat kasb etishi tabiiy. Undagi tahlil va tadqiqotlar natijasi bo'lgan fikr mulohazalardan o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim muassalaridagi adabiyot darslarida, shuningdek oliy o'quv yurtlarining stilistika, tarjima nazaryasi va amaliyoti, tarjimashunoslik fanlarini o'qitishda keng foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi. Mazkur bitiruv malakaviy ishi kirish qismi, ikki asosiy bob, to'rt paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Ish ikki bobdan iborat bo'lib, har bir bob ikki qismni o'z ichiga oladi. Har bir bobdan so'ng xulosa berilgan bo'lib, umumiy xulosa ish so'ngida berilgan. Barcha foydalanilgan manbaalar ro'yhati keltirilgan.

I.BOB. Xolid Husayniyning Amerika adabiyotdagi o'rni

1.1 XOLID HUSAYNIY VA UNING IJODI HAQIDA

Xolid Husayniy – Afg'onistonda tug'ulgan amerikalik yozuvchi va shifokor bo'lib, u 1965 – yil 4 – mart kuni Afg'onistonning Kobul shahrida tug'ulgan bo'lajak yozuvchi 5 farzandning eng kattasi edi. Otasi – Nasir ismli diplomat bo'lib, Kobuldagi tashqi ishlar vazirligida diplomat vazifasini bajargan, onasi esa Kobul o'rta maktabida fransuz tili o'qituvchisi bo'ib ishlagan. Yozuvchi o'z millati va kelib chiqishi haqida so'zlar ekan u quydagi jumlani keltirib o'tadi:

“Men toza nasl emasman. Ya'ni mening bir tomirimda Pushtun qoni oqsa, boshqa birida tojiklarning qoni bor ”.⁶

Ona tomonidan Pushtunlar qabilasiga mansub bo'lgan yozuvchi, ota tomonidan tojiklarga tegishli ekanligini tez- tez ta'kidlab turar edi. Husayniy o'zining oilasi va undagi muhit haqida gap ketganda o'ziga berilgan tarbiyani “ imtiyozli” deb hisoblashini e'tirof etadi. Chunki oilasidagi berilgan tarbiya tufayli, u o'zini shu darajaga kelgan deb hisoblaydi. Bolaligining naqt 8 yilini Kobul shahridagi vazir Akbarxonning o'rta maktabidagi o'rta sinfda o'qish bilan o'tkazgan yozuvchi bu maktab haqida so'z yuritar ekan, bu maktabning uning hayotidagi o'rni va ahamiyati beqiyos ekanligini g'urur bilan aytib o'tadi. Husayniy ona shahrini tasvirlar ekan uni o'zidek o'sib borayotgan yosh, navqiron shahrim deya ta'riflaydi.

1970 – yilda Husayniy va uning oilasi Eron shahriga otasining Tehronda Afg'oniston elchixonasidagi vazifasi sababli ko'chib o'tishadi. Lekin qisqa fursatda 1973 – yilda yana qaytib ona yurtlariga kelishadi va aynan shu yili uning kichik ukasi dunyoga keladi. 1976 – yil Afg'onistonda siyosiy vaziyat ancha jiddiy tus olgan bir vaqtda, 11- yoshli yozuvchining otasi Parij shahridan ish topib oilasi bilan o'sha yerga ko'chib ketishadi. “ 1978 – yil aprel oyi. Afg'oniston Xalq Demokratik partiyasi xalq hokimyatini qo'lga olgan Saur revalutsiyasi bizni yurtga qaytish imkonimizni ham yo'qqa chiqargan edi va

⁶ Robert P.L. -A companion to American fiction-. New York: 1912. P.211.

otam 2 yil mobaynida Sovet – Afg'on urushi sababli Qo'shma Shtatlardan boshpana so'rashga majbur bolgan edi" – deya hikoya qiladi yozuvchi afsus bilan. Shundan so'ng ular birgalikda Qo'shma Shtatlaring San-Xose shahrida yahashni boshladi. O'sha vaqtda 15 yoshda bo'lgan yozuvchi ingliz tilida so'zlasha olmas va chet el madaniyati, tili, dini unga juda hayratlanarli bo'lib tuyulganini yaxshi eslashini kulib eslaydi.

“Kobulda ko'plab oila a'zolarimiz va do'sti birodarlarimiz bor edi. Kommunistik to'ntarish, 1973 – yilda bo'lib o'tgan davlat to'ntarilishidan farqli o'laroq juda ham vahshiyona zoravonlikka asoslangan edi. Ko'plab odamlar to'planar va qatl namoyishi bo'lardi, yana anchasi qamoqqa tashlashar edi. Deyarli avvalgi rejim yoki shoh oilasi bilan aloqador bo'lgan har qanday odam yoki quvg'in qilingan yoki qamoqqa olingan, o'ldirilgan, ko'zdan yoqotilgan edi. Biz ba'zan uyda o'tirib do'stlar va tanishlar haqida xabar eshtar edik. Ular yoki qamoqxonada ba'zan eng yomoni ular g'oyib bo'lgan va hech kim qayerda ekanini bilmas, ba'zilari hech qachon qaytib kelmas edi. Hatto hozirgi kungacha biz ularga nima bo'lganini bilmaymiz ”.⁷ – deya tarif beradi yozuvchi o'z yurti haqida gapirar ekan.

1984 – yilda Husayniy San-Xose shahrida maktab bitiruvchisi bo'lib, Santa universitetida o'qishga kirdi va 1988 – yilda biologiya soxasini bitirib bakalavr darajasini oldi. Keyingi yillar davomida u Kaliforniya shtatining San – Diego tibbiyot fakultetiga o'qishga kirib, 1997 – yilda Los – Angelesdagi tibbiyot markazida ichki kasalliklar bo'limini tugatadi. U 10 yil davomida tibbiyot ilmini o'rganadi va hattoki birinchi asari chiqqanidan keyin ham yana bir yil yarim yilgacha o'qishni davom ettiradi.

2000-yillarning o'rtalarida Husayniyning onasi juda qattiq surunkali kasallikka chalinadi va bu kasallik bemorni o'rnidan turolmaydigan darajada bo'lib qolishiga olib keldi. Bu kasallik Husayn iyning onasini 2008-yilgacha, ya'ni uning o'limiga qadar davom etadi. 2004-yilning yozida Husayniy o'zining qadrdon do'stlaridan biriga maktub yo'llaydi va ushbu maktubda Husayniy

⁷ Khaled Hosseini.-The Kite Runner.-New York:NY Books:2003.

o'sha do'stini uyiga taklif qilgan. O'zi bora olmasligini, bunga sabab onasining sog'ligidagi muammoni aytib o'tadi. Otasi ham yaqinda safardan qaytayotganligini aytadi. Bunday paytda Husayniy o'zining ijodidagi eng go'zal namunalarni yaratdi desak mubolaga'a bo'lmaydi. Onasining sog'ligidagi muammo tufayli oiladagi barcha javobgarliklarni, ya'ni uy ishlarini o'z bo'yniga oladi. shu sababli ham doimiy uyda bo'lishga majbur edi. Ancha yillardan keyin onalarining sog'ligi tufayli, ya'ni surunkali kasalligi tufayli qizlaridan biri doimiy onasi bilan birga bo'lishi kerakligi haqida gapirib o'tadi. Bunday ma'suliyatli vazifani Husayniyning singlisi o'z bo'yniga oladi. Bu paytda Husayniy o'zining hayotini ijodiy dunyosini yanada mukammallashtirgan holda o'zining kitoblarida bayon qilgan holda yashashni davom ettiradi.

Dunyodagi ko'pgina ijodiy namunalar bilan tanishgan holda Xolid Husayniy 2003-yildan boshlab yozida abadiy qalblarni ishg'ol qiladigan go'zal ijodiy namunalarni yaratdi. Bu davrda Xolid Husayniy butunlay ijodga sho'ng'ib ketadi. O'zining eng sara asarlarini tanlab alohida nusaqalarni hosil qila boshlaydi. Chunki Xolid Husayniy Rumiy, Hofiz Sheroziy, Umar Xayyom, Mirzo Abdulqodir Bedil va boshqa serqirra ijodkorlarning ijodiy namunalari bilan tanishgan va bolaligidan sevib o'qigan edi. Aynan shu sababli ham yozuvchining ijod qilishga muhabbati paydo bo'lgan bo'lsa ne ajab.

2003-yillarning oxirlarida Husayniylar oilasi Springfield Republican deb nomlangan nashriyot uyining boshligi Samuel Bovles va uning rafiqasi Mary Bovles bilan do'st tutinadilar. Samuel hamda Mary Husayniylar oilasiga doimiy tashrif buyurib turadilar. Bu paytda Husayniy Samuelga o'ttiz oltita maktub yo'llaydi. Bu maktublarda asarlaridan namaunalar ham yo'llagan edi. Ularning do'stliklari juda ko'p ijodiy namunalarni ham yaratilishiga sabab bo'ldi desak yanglishmagan bo'lamiz. Bovleslar uning deyarli barcha asarlarini jurnalda nashr qiladilar. Xolid Husayniy 2004-2005-yillar mobaynida "Master letters" deb nomlangan uchta maktub yo'llaydi. Ushbu maktublarda noma'lum odam qahramon sifatida ta'riflanadi. Bu qahramon kim ekanligi haqidagi fikr-

mulohazalar olimlar o'rtasida har xil qarashlarga hamda bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda.

2000-yillarning birinchi yarmida Husayniy ijtimoiy dunyodan butunlay chetga chiqib qoladi. Bu davr esa Husayniyning hayotidagi eng samarali ijodiy davr bo'ldi desak yanglishmagan bo'lamiz. Zamonaviy olimlar hamda izlanuvchilarning fikr-mulohazalariga qaraganda Husayniyning dunyodan ajralib qolishi hamda yolg'izlik dunyosiga g'arq bo'lishining sababini ikkiga bo'lgan holda talqin qiladilar. Husayniy o'zining nerv tolalarini shifokorlar ko'rigidan o'tkazgan chog'ida, ya'ni shifokorlarning tekshiruvidan o'tgan paytida juda ko'p tashxislar qo'yilgan. Hozirgi davrda ko'pchilik ishonadiki, Husayniy doimiy turli xil kasalliklardan aziyat chekkan. Bunday kasalliklarga misol qilib keng joydan qo'rqish hamda tutqanoq kabilarni keltirishimiz mumkin.

2009-yilning aprel oyida adabiy tanqidchi, yirik yozuvchi hamda sobiq vazir hisoblangan Tomas Vent Higgenson Husayniyga "Yosh ijodkorga maktub" deb nomlangan maktub yo'llaydi. Bu maktubda Husayniyning ham hayotini, ham ijodiy faoliyatini o'zgartirib yuboradigan jummalarni keltirgan edi. Husayn "Siz yashash tarzingizni o'zgartiring, yangi dunyoni kashf qiling" degan jumlar mavjud edi. Bu so'zlar yozuvchiga ham hayotiy tarzini, ham ijodiy faoliyatini mukammallashtirishga ilhom bag'ishlovchi va ruhlantiruvchi jumlar bo'ldi desak yanglishmagan bo'lamiz. Bunday maslahatga muhtoj bo'lgan bo'lgan Husayn ijodiy faoliyatini yangilashga qaror qiladi. Husayniy endi Tomasning maslahatlariga ergashgan holda u bilan hamkorlik qila boshlaydi hamda 2004-yilda o'zining eng ajoyib asarlarini nashr qilish to'g'risida o'ylay boshlaydi. Husayniy yana shuni ham anglaydiki, muxlislarsiz yozuvchi hech kim emas va ijodiy faoliyating yanada ko'klarga parvoz qilishi ham aynan muxlislarga bog'liq bo'lib hisoblanadi. Husayniy shu paytgacha juda ko'p marotaba ijodiy hamkor izlagan edi. Ammo unga hech kim yordam qo'lini cho'zmaydi. Shuning uchun ham Husayniy Tomas Ventga o'zining chuqur minnatdorchiligini izhor etgan holda ijodining eng sara namunalaridan o'zining

maktubida yuboradi. Juda yuqori nafislik bilan g'ayritabiiy bu xatda biror bir belgi ko'rsatilmagan edi. Ammo Husayniy o'zining ismini konvertning bir chekkasiga bitgan edi. shuningdek, konvertga o'zining asarlaridan namunalaridan ham solib yuborgan edi. Husayniyning ijodiy namunalari bilan tanishgan Tomas Vent uni juda ko'klarga ko'tarib madh etadi. Ammo unga hali ozgina ijod qilganidan so'ng, o'zining ijodiy namunalarini nashr qildirishi lozimligi haqida maslahat beradi. Lekin bu paytda uning ijodiy namunalari dunyo yuzini ko'rishga ulgurgan edi. Husayniy o'zining ijodiy namunalarini muxlislar qalbidan joy olishiga ishonayotgani haqida o'zining maktubida bayon qiladi. Shuningdek, Husayniy shuni niyat qiladiki:

“Agar shon-shuhrat mening toleyimga yozilgan bo'lsa, bundan qochib qutilishning iloji yo'q. Aksincha bo'lsa ham men ijod qilganimdan hech qachon afsuslanmayman degan edi”.⁸

Husayniy Higgensonga yuborgan maktublaridagi dramatik o'ziga bergan ta'rif-tasnifi hamda sir-sinoatidan juda ham xursand bo'ladi. Xolid Husayniy o'ziga shunday ta'rif bergan edi: “Men hozirchalik chumolidek kichkinaman, mening sochlarim ham yo'q. Mening sochlarim kashtan tikanlariga o'xshaydi. Mening ko'zlarim esa billur idishdagi xeres uzumidan tayyorlangan eng oliy navli vinoga o'xshaydi” deb aytgan edi. Shu o'rinda Xolid Husayniy o'zining yolg'izligiga ham alohida urg'u berib o'tadi. Xolid o'zining haqiqiy do'stlari sifatida ulkan tog' cho'qqilari, tepaliklar, quyosh botishi, uning iti Karlo deb tan oladi. Shuningdek, Holidga uning onasi yetarli darajada mehribon bo'lmasada, uning otasi biror marta unga kitob sovg'a qilmagan bo'lsada, ijodaga bo'lgan cheksiz mehr-muhabbatini yo'qotmaganligi haqidagi o'zining fikr-mulohazalarini chuqur anduh bilan ta'kidlab o'tadi.

Xolid Husayniy Higgensonning ajoyib maslahatlarini juda qadrlar edi. Keyinchalik Higgensonga bitgan maktublarida “Janob Higgenson”, “Qadrli do'stim”, “Aziz do'stim” deya muraajaat qila boshladi. Maktubning xayrlashuv qismida esa o'zni “Sizning gnomingiz”, “Sizning yozuvchigiz” deya o'zining

⁸Khaled Hosseni.-The Kite Runner.-New York:NY Books:2003.

sermazmun maktublarini yakunlar edi. Higgensonning Husayniyning ijodiy faoliyatiga qiziqishi hamda doimiy qo'llab-quvvatlashi unga ulkan ruhiy ko'mak berar edi. Ko'p yillar o'tgandan so'ng, Xolid Higgensonga 2003-yilda uning hayotida ulkan burilish sodir qilishda yordami beqiyos ekani haqida ta'kidlaydi. Bu vaqtda Holid Husayn juda chuqur ruhiy iztirobda bo'lib, bunday og'ir paytida Higgenson unga juda katta ruhiy madad beradi. Xolid Husayniy hamda Higgenson uning vafotiga qadar doimiy maktub orqali muloqot qilib turganlar. Ammo Husayniyning adabiy qarashlarini ifodalashdagi duch keladigan qiyinchiliklari hamda boshqalar bilan hamkorlik qilishni xohlamasligi Higgensonni juda hayratda qoldirgan. Xolid Husayniy Higgensonga ko'pgina ijodiy namunalarini nashr qildirishga ham ruxsat bermaydi. Hasanga o'zining ijodiy namunalarini chop ettirish ehtimolligi juda kam bo'lganligi juda ko'p ta'kidlangan. Adabiy tanqidchi Edmund Vilson "Urush davridagi adabiyot"ga o'zining fikr-mulohazalarini bildirganda Xolid Husayniyning ijodi haqida ham juda iliq fikr-mulohazalarni keltirib o'tadi. Edmund Vilson Husayniyning ijodiy namunalarida insonni ruhlantiradigan, hayotga bo'lgan muhabbatni oshiradigan lavhalar juda ko'pligini ham alohida ta'kidlab o'tadi.

Husayniyning Avon nashriyot bo'limida olib borgan faoliyati katta tajriba maktabi bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu yerdagi hamkasblari ham juda yaxshi bo'lib, Holid bu yerda hayotining eng ajoyib vaqlarini o'tkazdi. Xolidning birinchi farzandi dunyoga kelganidan so'ng, ularning hayotlarida og'ir damlar boshlanadi. Keyin Xolid o'zining oilasi bilan boshqa shahriga ko'chib ketdilar.

Xolid biroz yollanma ishchi bo'lib ishlaganidan so'ng, u Vorkester Telegram deb nomlangan gazetaga muhbir sifatida o'zining faoliyatini boshlaydi. Bu yerda ishlay boshlagandandan so'ng, u o'zining ish faoliyatidan qoniqish hosil qila boshladi desak adashmagan bo'lamiz. 1959-yilda Boy mashhur Boston Gerald tomonidan ishga taklif qilinadi. Bu Telegramday mashhur bo'lgan ertalabki gazetalardan biri bo'lib hisoblanadi. Xolid bir paytning o'zida ham umumiy muhbir lavozimida ham ishlardi. Bu Xolidning

hayotidagi ulkan ilmiy hamda tibbiy yuksalish davrining boshlanishi bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Xolid Husayniyning Geraldga ishlaydigan davrida o'zi chiqarishda muhbirlik qilayotgan gazetada o'zi bevosita guvoh bo'lgan jarrohlik amaliyoti natijalarini xalqning e'tiboriga havola qildi. Shundan keyin qisqa vaqt ichida o'zi ishlayotgan Gerald gazetasining ilmiy nashriyotchisi lavozimida faoliyat yurita boshlaydi.⁹

Husayniyning ijodining mahsuldorligiga qarama-qarshi jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, bu 2010-yillarning boshlarida namoyon bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki Xolid 2010-yilda har doimgidan ko'ra kamroq asar yozdi, ya'ni har doimgidan ko'ra kamroq ijod qiladi. Buning asosiy sabablariga o'zining eng yaqin insonlaridan judo bo'lganligi hamda hashamatli uydagi uy ishlarida yordamning kamligida deb ko'rsatishimiz mumkin. Xolid o'zining oldingi ijod qilish darjasini saqlash uchun juda charchagan edi. o'n olti yil davomida har doim yonida bo'lgan qadrdon do'sti hisoblanagan iti Karlo shu paytda vafot etadi. O'zining eng qadrdon do'stidan judo bo'lgan Xolid Husayniy uzoq vaqt o'zini o'nglay olmaydi, ruhiy jihatdan chuqur qayg'uga tushib qoladi. Shundan so'ng Xolid umri davomida qaytib it olmaydi. Chunki Xolid uchun Karlning o'rnini endi hech qanday it egallay olmas edi.

2003-yilda Husayniy o'zining ilk romani – “Shamol ortidan yugurib” asarida yosh bolakay Amirning otasi bilan yaqinroq munosabatda bo'lish va bolalikdagi eng zavqli voqealarni eslab qolish uchun xotiralar bilan shug'ullanish va kurash olib borish haqida hikoyasini chiqardi. Roman Afg'onistonda monarxiyaning o'rnatilishi, Tolibon rejimining qulashi va San-Fransisko ko'rfazi hududida, xususan Kaliforniya shtati Fremontda joylashgan ko'pgina mavzular orasida Xazarlar va Afg'onistondagi Pashtunlar o'rtasida etnik ziddiyatlar, Amir va uning Qo'shma Shtatlardagi otasi yashovchi immigrantlardek yashaganlaridagi tajribalari haqida yoritadi. Nilsonning ma'lumotiga ko'ra, roman Amerika Qo'shma Shtatlarida 2005-yilda eng yaxshi sotilgan asari bo'lgan. Bu asar shuningdek mualliflar tomonidan o'qilgan

⁹ Robert P.L.-A companion to American fiction-. New York: 1912. P- 211.

audiokitob sifatida ham ishlab chiqilgan. Xususan asar 2007-yilning dekabrda ishlangan xuddi shu nomdagi film ham asarni aynan haqiqiy hayotga moslashtirishadi.

Husayniyning “Ming bir quyosh shulasi” nomli ikkinchi romani, 2007-yilda chop etilgan va Afg'onistonda ham ko'plab o'qilgan. Bu hikoyada yozuvchi birinchi asari singari bir xil masalalarni ko'rib chiqadi, ammo bu asarda ayolning nuqtai nazari ko'proq. Bu ikki ayolning hayoti, Mariam va Layloning hikoyasi bo'lib, unda Afg'onistonning sovet bosqinchiligidan to Tolibonni nazorat qilish va Tolibondan keyin qayta tiklashdan o'ttiz yillik o'tish davrida belgilandi. Roman 22-iyul 2007-yil, “River head” kitoblar tomonidan Simon-Schuster audiokitobi bilan bir vaqtning o'zida chop etildi. Film huquqi prodyuser Scott Rudin va Columbia Pictures tomonidan sotib olingan.¹⁰

Husayniyning “Ota-o'g'li hikoyasini” hisoblagan “Shamol ortidan yugurib” asaridan farqli o'laroq romanni “Ona-qiz hikoyasi” deb hisoblaydi. O'tgan ishlarida masalan, oilaviy jihatlarida qo'llanilgan ba'zi mavzularni davom ettirgan xolda, ammo asosan ayollar belgilariga va ularning afg'on jamiyatidagi ro'llariga e'tibor qaratadi.

Bozorda birinchi hafta mobaynida u milliondan ortiq nusxani sotdi. Kolumbiya rasmiylari 2007-yilda film huquqlarini sotib oldi va kitobni kino moslashuvini yaratish niyatini tasdiqlandi. Birinchi teatral adaptatsiya kitobi 2017 - yil 1 – fevralda Kaliforniyaning San-Fransisko shtatidagi Amerika Konservatoriyasi teatrida namoyish etildi.

Ikki afg'on ayoliga qaratilgan bir roman yozishga nima sabab bo'lganini so'rashganda, Husayniy javob berdi:

“Men asarni yozib tugatgandan keyin bir muddat afg'on ayollariga atab bir hikoya yozmoqchi bo'ldim va g'oyasini ko'ngilochar qilishga intildim. Menning afg'on jamiyatimning butun jihati bor edi, men asarimda ularga tegmadim. Men o'zimni his qilishim mumkin bo'lgan butun bir manzarani hikoyalar, g'oyalar bilan samarali aks ettirganday bo'ldim. 2003 - yil bahorida Kobulga bordim va

¹⁰ Khaled Hosseini.-The Kite Runner.-New York:NY Books:2003.

shunda paranjiga yopingan ayollar ko'cha burchaklarida o'tirib nechtalab farzand ko'rganini eslayman. Men ularning ko'chada yugurib borayotganlarini, bolalarining kiygan kiyim-kechaklarini tomosha qilib, ularni hayotga qanday qilib olib kelish haqida o'ylar edim. Men Kobuldagi bu ayollarning ko'pchiligi bilan suhbatlashdim. Ularning hayotiy hikoyalari chindan ham dahshatli edi. Men "Ming bir quyosh shulasi" asarini yozishga kirishganimda, men o'zimni bu mo'tabar ayollarni qayta-qayta o'ylab topdim. Men Kobuldagi uchrahgan har bir ayoldan ilhomlanib Laylo yoki Maryam, ularning ovozlari, yuzlar, va tirik nigohimda gavdalanar, ularning ajoyib hikoyalari men bilan har doim ilhom manbai edi".¹¹

Husayniyning uchinchi romani "To'glar ham sado beradi" 2013-yil 21-may kuni nashr qilindi va yozuvchi nashr qilishdan oldin shunday deydi:

"Men doimo oilaga yozishimning takrorlanuvchi asosiy mavzusi sifatida qarayman. Mening dastlabki romanlarim otalik va onalik hikoyalari edi. Mening yangi romanim ko'p avlodli oilaviy hikoyadir, bu safar birodar-u opa-singillar atrofida aylanmoqda va ular sevgan, yarador, xiyonat qilgan, hurmat va bir-biriga qurbonlik qilgan yo'llardir".¹²

Yozuvchi hozirda BMT tashkilotining qochoqlar bo'yicha oily komissiyasida elchi lavozimida xizmat qilyapti. Xolid Husayniy jamg'armasi tomonidan Afg'onistonda insonparvarlik yordam ko'rsatishga harakat qilmoqda.

Husayniy Roya ismli ayol bilan turmush qurgan va hozirda ikki farzandning otasi. Ularning bir – Haris, ikkinchisi – Farah bo'lib, har ikkalasi ham oily ma'lumotli bo'lish harakatidadirlar. Muvaffaqiyatli ma'ruzachi bo'lgan Haris yakka kurash bo'yicha milliy chempionatda faxrli o'rinni egallaydi. Hozirda u oilasi bilan Shimoliy Kaliforniya shtatida yashaydi.

"Ming bir quyosh shulasi" va "Shamol ortidan yugurib" asarlarining umumiy mavzular haqida so'ralganda, Holid Husayniy shunday javob berdi:

¹¹Khaled Hosseni.-The Kite Runner.-New York:NY Books:2003.

¹² Khaled Hosseni.-The Kite Runner.-New York:NY Books:2003.

“Har ikkala roman ham juda ko'p sonli muxlislariga ega bo'lib, shuning uchun ota-onalar va bolaning o'zaro bog'liqligi va qarama-qarshiliklari bilan bog'liq masalalar juda muhimdir. Men bunga intilmaganman, lekin men ota-ona va farzandlarning bir biriga bo'lgan sevgisi, umidsizlik va boshqa his tuyg'ular, oxir-oqibatda bir-birlarini hurmat qilishlari va ishonishlari haqida yoritib berishga harakat qilganman xolos. Bu ikkala roman ham bir-biriga ziddir: “Shamol ortidan yugurib” otasi o'g'li hikoyasidir, “Ming bir quyosh shulasi” ona-qizi voqeasi sifatida ko'rilishi mumkin. Yozuvchi romanlarni "sevgi hikoyalari" deb hisoblaydi, chunki "sevgi", o'zlarining qobig'idan ajratib turadigan belgilarni keltirib chiqaradi, bu ularga o'z cheklanishlarini oshirib yuborish, zaifliklarini ochish va fidoyilikning dahshatli harakatlarini amalga oshirish uchun kuch beradi.¹³

Husayniy “Shamol ortidan yugurib” asarini ota-o'g'il hikoyasi deb hisoblagan, bu hikoyaning oilaviy tomonlarini ta'kidlagan, keyinchalik u keyingi ishlarida foydalanishni davom ettirgan element ekanini ta'kidlagan. Aybdorlik va najot mavzular, Amir muvaffaqiyatsizlikni oldini olish uchun deb Hasan qarshi zo'ravonlik akti tasvirlangan asosiy sahnasida bilan roman ko'zga yaqindir. Kitob markazlarining ikkinchi yarmi Amirning yigirma yil o'tgach, Hasanning o'g'li qutqarish yo'li bilan bu tajovuzga chek qo'yishga urinishlari haqida.

“Shamol ortidan yugurib” asari chop etilgach, kitob klublarida ommalashgan. Bu ikki yil davomida Nyu-York Taymsning bir nechta eng yaxshi sotuvchisi, Qo'shma Shtatlarda yetti milliondan ortiq nusxada sotilgan. Garchi asarning ba'zi qismlari Afg'onistondagi muhim bahs-munozaralarga sabab bo'lgan bo'lsada, sharhlar odatda ijobiy bo'ldi. Bir nechta moslashtirishlar nashr etilganidan keyin, shu jumladan, 2007-yilda xuddi shu nomdagi film, bir necha marotaba sahnalashtirilgan spektakl va grafika romani yaratildi.

Romanning qahramoni Amir kabi, Husayniy Afg'onistonda tug'ilib, mamlakatdan ketganicha va 2003 yilgacha qaytmadi. Shunday qilib, u

¹³ Khaled Hosseini.-The Kite Runner.-New York:NY Books:2003.

kitobning avtobiografiya jihatlarining darajasi haqida ko'pincha so'roqqa tutildi. Bunga javoban u: "Men buni aytganimda, odamlar qoniqtirmayapti, o'xshashliklari juda aniq, lekin ... Men bir nechta narsani qoldirib ketdim, chunki kitob klublarini aqldan ozdirmoqchi bo'ldim. Sovet ishg'oli davrida mamlakatni tark qilib, u ma'lum bir miqdorda yozuvchini aybladim. Men Afg'oniston haqidagi hikoyalarni o'qiganimda, men har doim aybdorlik bilan munosabatda edim, bolalik do'stlarimning ko'pchiligi juda og'ir vaqtlar bo'lgan edi. Ba'zi amakivachchalarimiz vafot etdi, biri Afg'onistondan qochib qutulmoqchi bo'lgan yonilg'i yuk mashinasida vafot etdi. Aybi haqida gapiring. U men bilan birga o'sgan bolalardan biri edi. Uning otasi otib o'ldirilgan. Nima bo'lishidan qat'iy nazar, u bu fitnani uydirma deb hisoblaydi"¹⁴. Keyinchalik, uning ikkinchi romanini "Tog'lar ham sado bradi" deb nomlangan deb yozganida, Husayniy asosiy qahramonlarning ayol bo'lganligi uchun baxtli ekanini ta'kidladi.

Asar dastlab 2003-yil 29-mayda chop etilgan bo'lib, qog'oz nashr etilganidan bir yil o'tib chiqdi. Husayniy bir yil davomida kitobni targ'ib qilish, nusxalarini imzolash, turli hodisalarda nutq so'zlash va afg'onlarning sabablari uchun mablag' to'plash uchun tibbiyot amaliyotidan voz kechdi. Dastlab ingliz tilida nashr etilgan asar, keyinchalik 38 ta mamlakatda nashr etilishi uchun 42 ta tilga tarjima qilingan. 2013 yilda Riverheadning 10-yillik yubileyini yangi oltin rangli qopqoq va Husayniy tomonidan oldindan e'lon qildi. Shu yilning 21 may kuni yozuvchi "Tog'lar ham sado beradi" deb nomlangan yana bir kitob nashr etdi.

Xulosa qilib aytganda nafaqat shifokor balki yozuvchi bo'lgan Xolid Husayniy o'z hayoti va ijodi davomida 3 ta asar yozgan bo'lib, asarlarida oilaviy mavzularni asos qilib olgan va ularni o'z asarlarida yoritib bergan sanaladi. "Shamol otridan yugurib" asarida ota va o'g'il munosabatlari, "Ming bir quyosh shulasi" asarida ona va qiz munosabatlari, "Tog'lar ham sado beradi" asarida oilaviy munosabatlarda yoritib berilgan.

¹⁴ The Kite Runner.Hosseni Khaled..New York, NY Books, 2003

1.2 STILISTIK VOSITALARNING BADIY ADABIYOTDA QO'LLANILISHI

Badiiy til umumxalq tili asosida yuzaga keladi. Yozuvchi umumxalq tilidan foydalanar ekan umumodatlangan normadan og'adi (ya'ni, til unsurlarini odatdagidan o'zga shakl, ma'no, tartib, munosabat va shu kabilarda qo'llaydi) va shu "og'ish"dan ma'lum badiiy-estetik maqsadni ko'zda tutadi. Bu xil og'ishlar tilning turli sathlarida, jumladan, fonetik, morfologik, leksik, semantik, sintaktik sathlarda kuzatilishi mumkin. Badiiy tasvir va ifoda vositalari ijodkorning muayyan badiiy-estetik maqsadga erishish uchun umumodatlangan normadan og'ishi natijasida yuzaga keladi, ular tasvirning jonli va to'laqonli bo'lishiga, ifodaviylikning kuchayishiga xizmat qiladi.

Leksik satxdagi normadan og'ish yozuvchining umumxalq tili bazasidagi leksik vositalardan foydalanishida ko'rinadi. Ma'lumki, umumxalq tilidagi so'zlar o'zlarining nominativ holatida ham tasviriylik va ifodaviylik imkoniyatlari jihatidan farqlanadi. Ya'ni, ijodkor ifoda va tasvirni so'z ma'nosiga daxl qilmagan holda, mavjud so'z hazinasidan "so'z tanlash" hisobigagina kuchaytirishi mumkin bo'ladi.¹⁵

Yozuvchining umumxalq tilida mavjud so'zlardan umumodatiydan o'zgacharoq foydalanishi quyidagicha badiiy-estetik maqsadlar bilan yuz beradi:

1. Davr koloritini(ruhini) berish uchun. Lug'atdagi eskirgan so'zlar — arxaizm va istorizmlar odatdagi so'zlashuvda ishlatilmasligi ma'lum. Biroq ular tarixiy mavzudagi badiiy asarlarda davr koloritini berish uchun juda zarur. Deylik, o'z asarida o'n beshinchi asr voqeligini tasvirlayotgan ijodkor, tabiiyki, o'sha davrga xos realiyalarni tasvirlashi lozim bo'ladi. Ya'ni, o'sha davr koloritini o'sha davrga xos bo'lgan narsa-buyumlar, hodisalar, tushunchalar va h. nomlarisiz to'la tasvirlab bo'lmaydi. Ikkinchi tomondan, o'n beshinchi asr muhitida harakatlanayotgan personaj tili ham shunga mos bo'lishi, uning nutqida o'sha davrga xos so'zlar va so'zshakllar ishlatilishi obrazning ishonarli va to'laqonli bo'lishiga xizmat qiladi.

¹⁵ Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent, 1983.

2. Adabiy tilda kam qo'llaniluvchi dialektizmlar badiiy asarda joy koloritini berish uchun qo'l keladi. Aytaylik, o'zbek tilida so'zlashuvchilar tarqalgan xududlarda umummilliy xususiyatlar bilan bir qatorda o'sha xudud kishilarigagina xos bo'lgan jihatlar (urf-odatlar, tasavvurlar, aqidalar, narsa-buyumlar va h.k.) ham mavjudki, bular birinchi galda sheva tilida o'z aksini topadi. Shunday ekan, asarda tasvirlanayotgan xududga xos buyoqlarni berish, unda harakatlanayotgan personaj xarakterini to'laqonli badiiy talqin etish uchun dialektizmlardan foydalanish zarurati yuzaga keladi.

3. Badiiy obraz konkretlik xususiyatiga ega. Asardagi personaj konkret muhitda harakat qiladi. Muhitga mansublikni ifodalashda varvarizmlar, vulgarizmlar, argo va jargonlarning ahamiyati katta. Muhit koloritini ifodalash bilan birga, ular personaj nutqini individuallashtirish, ruhiyatini ochish va umumiy qiyofasini yaratishda ham muhim ahamiyatga kasb etadi.

4. Tasvir predmetiga munosabatni ifodalash. Tilimizda mavjud so'zlar emotsional bo'yoqdorligi nuqtai nazaridan bir-biridan farq qiladi. Yozuvchi tasvir predmetiga munosabatini ifodalash uchun mavjud so'zlardan keragini tanlashi zarur bo'ladi. Masalan, sinonim so'zlar qatoridan ijobiy bo'yoqqa yoki salbiy bo'yoqqa ega so'zning tanlanishi yozuvchining tasvir predmetiga munosabatini yorqin ifodalab berishi mumkin.¹⁶

Semantik satxdagi og'ishlar. Ma'lumki, nutq jarayonida biz so'zlarni o'z ma'nosida yoki ko'chma ma'noda qo'llashimiz mumkin. So'zning odatiy ma'nosidan o'zga ma'noda qo'llanishi semantik satxdagi og'ish sanaladi. Ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlarning umumiy nomi trop (ko'chim) deb yuritiladi. So'z ma'nosi ko'chishining, tropning metafora, metonimiya, sinekdoxa, kinoya singari bir qator ko'rinishlari mavjud. Badiiy asarda qo'llanilgan ko'chimlar ishlatilish darajasi, badiiy bo'yoqdorligi, ta'sirdorlik darajasi kabi jihatlaridan bir-biridan jiddiy farqlanadi:

a) ko'chimlarning bir qismi allaqachon til hodisasiga aylanib ulgurgan.

¹⁶ Salomov G'. -Tarjima nazariyasi asoslari.-Toshkent, 1983.

Masalan, "kun botdi", "soat yuryapti" kabi birikmalarda so'z ma'nosi ko'chganligi aniq, biroq biz ularga shu darajada ko'nikib ketganmizki, hozirda ularga ko'chim sifatida qaramaymiz ham. Badiiy asar matnida mazkur ko'chimlar qo'llanganida, tabiiyki, muallif muayyan badiiy-estetik maqsad bilan semantik satxda og'ishga yo'l qo'ygan deya olmaymiz, zero, ular yozuvchi tomonidan tayyor holda olingan. Balki, bu xil ko'chimlar matnda estetik funktsiya bajarmaydi, ularni badiiyat hodisasi sifatida talqin qilib bo'lmaydi;

b) asar matnida badiiy adabiyotda an'anaviy tarzda ishlatilib kelayotgan ko'chimlar ham ko'p uchraydi. Masalan, "shakar lab", "gul yuz", "bulbul", "sarv qomat", "qoshi kamon", "nargis ko'z" va hokazo. Bu xil ko'chimlar ham yuqoridagilar singari tayyor holda olinadi, biroq, ulardan farqli o'laroq, matnda estetik funktsiya bajaradi: tasviriylilikni, ifodaviylilikni kuchaytiradi;

v) badiiy-estetik funktsiyadorligi, tasviriylilik va ifodaviylilikni kuchaytirishi jihatidan muayyan matndagina ko'chma ma'noda qo'llangan, muallifning assotsiativ fikrlashi mahsuli o'laroq dunyoga kelgan ko'chimlar alohida o'rin tutadi. Ularni shartli ravishda "xususiy muallif ko'chmlari" deb atashimiz mumkin. Shu xildagi ko'chmlargina yozuvchining muayyan badiiy-estetik maqsadni ko'zlab yo'l qo'ygan semantik satxdagi og'ishi natijasidirki, uning badiiy til bobidagi mahorati xususida gap borganda biz, avvalo, shu xil ko'chmlarni e'tiborga olishimiz kerak bo'ladi.¹⁷

Voqelikdagi narsa-hodisalar orasidagi bizga ko'rinmagan, biroq san'atkorona o'tkir nigoh bilan ilg'angan o'xshashlik, aloqadorlik asosidagi ko'chimlar o'quvchini hayratga soladi, unga zavq bag'ishlaydi. Badiiy asarda eng ko'p qo'llanuvchi ko'chim turlaridan biri metaforadir. Metafora usulidagi ma'no ko'chishida narsa-hodisalar orasidagi o'xshashlikka asoslaniladi. Tabiatan, metaforani yashirin o'xshatish deb atash mumkin. Yashirin o'xshatish deb atalishiga sabab shuki, metaforada o'xshatilayotgan narsa tushirib qoldirilgani holda o'xshayotgan narsa uning ma'nosini bildiradi. Tabiiyki, bunda o'xshatilayotgan narsalardan aynan o'xshashlik talab qilinmaydi, ikki

¹⁷ Salomov G'. -Tarjima nazariyasi asoslari-.Toshkent: 1983

narsa hodisaga xos belgilardan birortasi asos uchun olinadi. Masalan, "oltin kuz", "oltin davr" birikmalarining birinchisida "rang", ikkinchisida "qimmat" asos uchun olingan. Keltirilgan misol metaforaning eng sodda ko'rinishlaridan bo'lib, quyida o'xshashlik aloqalari birmuncha murakkabroq namoyon bo'luvchi xususiy muallif metaforalaridan bir nechasini mushohada qilib ko'ramiz.¹⁸

Ma'no ko'chishining keng tarqalgan turlaridan yana biri metonimiyadir. Metonimiya (gr.-"o'zgacha nomlash", "boshqa narsa orqali atash") usulida ma'no ko'chganida narsa-hodisalar o'rtasidagi aloqadorlik asos qilib olinadi. Bu aloqadorlik turlicha ko'rinishlarda namoyon bo'lib, bunda narsa-hodisa, holat yoki harakat bilan ular egallagan joy ("stadion hayqirdi", "butun shahar qatnashdi"), vaqt ("og'ir kun", "omadli yil"); harakat bilan u amalga oshiriladigan vosita ("achchiq til"); narsa va uning egasi, yaratuvchisi ("Fuzuliyini o'qimoq"); narsa va uyasalgan modda, xom-ashyo ("barmoqlari to'la tilla"); ruhiy holat, xususiyat va uning tashqi belgisi ("ko'z yummoq") kabi aloqalarga asoslaniladi. Badiiy adabiyotda, ayniqsa, metaforik tafakkur etakchilik qilayotgan zamonaviy adabiyotda metonimiya metaforaga nisbatan kamroq uchraydi, o'zining estetik funktsiyadorligi jihatidan ham u metaforadan quyiroq turadi. Shunday bo'lsa-da, badiiy matnda metafora bilan yondosh qo'llangan holda u katta badiiy samara beradi, fikrni lo'nda va ta'sirli ifodalashga xizmat qiladi. Misol uchun A.Oripovning "Bahor" she'ridan olingan "Qaydadir yurtini eslab ingrar nay" satrini olib ko'raylik. Cholg'u asbobi orqali kuy ma'nosining berilishi — metonimiya, biroq u "ingrar" metaforasi bilan qo'shilib kuchli badiiy samara beradi. Yoki "Faryod chekkanim yo'q el ichra taqir, O'ch ham olganim yo'q na qalamimdan" satrlarida ham yana vosita orqali jarayon nazarda tutiladi va u ham "o'ch olmoq" metaforasi bilan baqamti qo'llanadi. Bu ikkisi birlikda esa "butun vujudim bilan ijodga berilib

¹⁸ Safarova M F -Ingliz tilidan o'zbek tiliga badiiy tarjimaning o'ziga xos xususiyatlari-. Magistirlilik desirtatsiyasi.Urganch:2015 yil. B-16-25

g'amlarimni unutishga harakat qilmadim" degan ma'noni beradi va, muhimi, shu mazmunni obrazli, ta'sirli ifodalashga xizmat qiladi.¹⁹

Tropning yana bir turi sinekdoxa bo'lib, u mohiyat e'tibori bilan metonimiyaning bir ko'rinishidir. Sinekdoxaning metonimiya ko'rinishi sifatida qaralishiga sabab shuki, bunda ham aloqadorlik asosida — butun va qism, yakka va umum aloqasi asosida ma'no ko'chishi yuz beradi. Shu bois ham mutaxassislarsinekdoxani metonimiyaning miqdoriy ko'rinishi deb qaraydilar. X.Davronning "Kulol muhabbati" she'ridan:

Sahardan to oqshomga qadar,
Ko'kda porlab yonmaguncha oy,
Ertak so'ylar sarxush barmoqlar,
Ertak tinglar qizil rangli loy...

Bu o'rinda ham "ertak so'ylar" metafora bo'lsa, "barmoqlar" sinekdoxadir. "Ertak so'ylar" deganda kulolning o'z ishiga butun mehri, qalb qo'ri bilan berilgan ijodning sehrli onlari nazarda tutiladi. Tabiiyki, ertak so'ylayotgan "barmoqlar" — qism va u butunni — kulolni anglatadi. Yoki M.Yusuf "Faqat shu er yaqin yurakka, Faqat shunda quvonar ko'zlar" deganida ko'z odam ma'nosini bildirishi ham sinekdoxaga misol bo'la oladi. Yakka narsa nomi bilan umumni nazarda tutishlik ham sinekdoxa sanaladi. Sh.Rahmon bir she'rida: "Qadimda mevalar etilgan paytda savob deb yashagan komil ajdodim musofir chanqog'in bossin deb atay buzib qo'yar ekan bog'lar devorin" deb yozarkan, "qadim ajdodim" birikmasi ostida ajdodlarni, butun xalqni nazarda tutadi. Shunga o'xshash, "O'zbekning qorako'z bolalariga bitta dunyo qolsin hayratlik" deganida ham o'zbek xalqi nazarda tutilgani tayindir. Badiiy asarlarda atoqli otlarning turdosh ot ma'nosida qo'llanilishi ham sinekdoxaning bir ko'rinishi deb qaraladi. Masalan, shoir "faqat Jumavoyi bo'lgani uchun havaslaring kelar robinzonlarga" deganida Robinzonga o'xshash hayot kechiruvchi kishilarni - ko'pchilikni nazarda tutadi.²⁰

¹⁹Salomov G'.-Tarjima nazariyasi asoslari-.Toshkent: 1983

²⁰Safarova M F -Ingliz tilidan o'zbek tiliga badiiy tarjimaning o'ziga xos xususiyatlari-. Magistirlilik desirtatsiyasi.Urganch:2015 yil. B-16-25

Ma'no ko'chishining yana bir turi "kinoya" (ironiya) bo'lib, u teskari o'xshatishga asoslangan ko'chimdir. Masalan, A.Qodiriy Kalvak maxzumning badbashara qiyofasini chizib bergach, boshqa bir o'rinda uni "husni Yusuf" deb ataydiki, bu birikmaning teskari ma'noda qo'llangani bizga ravshan. Kinoya qahramonlar tilida ham keng qo'llanadi. Biroq bu holda u ko'chim sifatida emas, ko'proq konkret hayotiy holatga, sog'lom mantiqqa yoxud so'zlovchining maqsadiga muvofiq kelmaydigan gap sifatida ko'rinadi. Kinoya asosidagi bu usul antifrazis deb yuritiladi. Antifrazis tasvir predmetiga yozuvchi munosabatni ifodalashda ayniqsa qo'l keladi.²¹

Ko'chimning yana bir turi allegoriya bo'lib, bunda mavhum tushunchalar konkret narsa-hodisalar orqali ifodalanadi. Badiiy adabiyotda allegoriyalar ko'proq an'anaviy tarzda qo'llanib, ular turg'un holatga kelib ulgurgan. Masalan, badiiy asarlarda "tulki" ayyorlik, "bo'ri" vahshiylik, "eshak" farosatsizlik, "jibljibon" qo'nimsizlik, "buqalamun" tutruqsizlik kabi ko'chma ma'nolarda qo'llanadi.²²

Badiiy adabiyotda mohiyatan allegoriyaga yaqin bo'lgan ko'chimning bir turi sifatida simvol (ramz) ham qo'llanadi. Simvolning allegoriyadan farqi shundaki, u muayyan kontekst doirasida ham o'z ma'nosida va ham ko'chma ma'noda qo'llanadi. Masalan, Cho'lpon she'riyatidagi "yulduz", "bulut", "bahor", "qish" obrazlari buning yorqin misoli bo'la oladi. Jumladan, Cho'lponning mashhur "Qalandar ishq" she'rini o'qiganda uni ishqiy mavzudagi she'r sifatida tushunishimiz mumkin. Biroq bu she'rdagi ramzlar qatida boshqa bir ma'no ham mustaqil holda mavjud bo'lib, bu ma'noni o'z vaqtida shoirga ruhan yaqin qishilar tushunganlar. Sababi, ular ramzlarning ma'nosi anglashiladigan kontekstdan — shoirning hayot yo'li, orzu-intilishlari, she'r yozilgan paytdagi ruhiy holati va hakozi omillardan xabardor bo'lganlar. Demak, hozirda ham she'rni Cho'lponning hayot yo'li va ijodiy merosi kontekstida o'rganilsa, ramziy ma'no anglashilishi mumkin. Ramzning tabiati

²¹Xudoyorova D.- Badiiy tarjimada filologik taxlil masalasi-. Navoiy DPI

²² Safarova M F -Ingliz tilidan o'zbek tiliga badiiy tarjimaning o'ziga xos xususiyatlari-. Magistrlilik desirtatsiyasi.Urganch:2015 yil. B-16-25

haqidagi fikrlarni R.Parfi she'ridan olingan tubandagi parcha misolida ham ko'rishimiz mumkin:

Yana keldim mahzun go'shaga

Bunda bir nay yotibdi sinib.

Qo'y sig'inma ortiq o'shanga,

Qo'y sig'inma unga sevgilim...

Parchadagi "singan nay" ramzdir. Mazkur ramzni o'z ma'nosida ham (ya'ni, o'sha go'shada chindanam singan nay yotibdi degan ma'noda), shuningdek, uni lirik qahramonning yo'qotilgan hislari, armonga aylangan orzulari ma'nosida ham tushuniish mumkin bo'ladi. Ikkinchi holatda biz "singan nay"ni ramz sifatida qabul qilgan bo'lamiz. Masalaning yana bir muhim tomoni shuki, "singan nay" bilan "yo'qotilgan hislar, armonga aylangan orzular" orasida hech qanday, ya'ni, metaforadagi kabi o'xshashlik yoki metonimiyadagi kabi aloqadorlik asosidagi munosabat mavjud emas. Ya'ni, "singan nay" faqat shu kontekst doirasidagina shartli ravishda o'sha mazmunni ifodalashi mumkin. Xuddi shu gap Cho'lponning "Qalandar ishq" she'ridagi "yor", "muhabbat", "dengiz", "yulduz", "quyosh" ramzlariga ham to'la taalluqlidir. Zero, ular ham o'zlari ifodalayotgan ramziy ma'no bilan o'xshashlik yoki aloqadorlik munosabatida emas, faqat shartli ravishdagina (shartdan, kontekstdan boxabar kishilargagina) ramziy ma'noni ifodalaydilar. Shartdan, kontekstdan bexabar o'quvchi uchun esa she'rning faqat bevosita mazmuni, yuzadagi mazmunigina mavjuddir.

Ma'lumki, ko'chimlarning eng keng qo'llanuvchi turi metafora nutqda ma'lum stilistik maqsad uchun xizmat qiladi. So'zlarni metaforik ma'noda qo'llashning asosiy vazifasi nutqning obrazlilikini, tasviriyligini oshirish bo'lsa, shu obrazlilik va tasviriylilik matnda yuzaga keluvchi emotsional- ekspressivlik konnotativ ma'nodir. Demak, metafora konnotatsiyani yuzaga chiqaruvchi tasviriyy vositalardan biri sifatida ahamiyatli. Said Ahmad asarlarida ham

nutqning ta'sirchanligini, obrazlilikini oshirishda metaforadan unumli foydalaniladi.²³

Metaforalar haqidagi nazariy qarashlar qadimgi davrlardayoq mavjud bo'lgan. XX asrning so'nggi choragida ma'no ko'chishining usullaridan biri hisoblangan bu hodisaning inson kognitiv faoliyatiga ham xos ekanligi haqidagi qarashlar ilgari surila boshladi. Bunday qarashlarning shakllanishida, xususan, o'z tadqiqotlarida metaforaga antropologik nuqtayi nazardan yondashgan M.Osborn, V.Fon Gumboldt, J.Jeyns, E.Kassirer, N.F.Alifirenko, J.Lakkof, M.Jonson kabi olimlarning fikrlari asosiy o'rinni egallaydi.

Amerikalik tadqiqotchi J.Jeyns mavhum konseptlar konkret metaforalar yordamida shakllanishini ta'kidlab, noma'lum va notanish predmetni tasavvur qilishda bizga juda yaxshi tanish bo'lgan hamda sensor hissiyotlarimiz bilan bog'liq bo'lgan obrazni tanlay olish o'rinli metaforani yuzaga keltirishini ta'kidlagan edi.²⁴

O'tgan asrning so'nggi choragida kognitiv tilshunoslikning taniqli vakili bo'lgan J.Lakkof hamda mashhur faylasuf M.Jonson tomonidan yaratilgan metaforalar to'g'risidagi tadqiqot bu boradagi qarashlarning tub burilishiga sabab bo'ldi. Mazkur tadqiqotchilar kognitiv (konseptual) metaforalar nazariyasiga asos solib, metaforalar faqat til hodisasi bo'ligina qolmay, inson tafakkurining ham ajralmas qismi ekanligini chuqur yoritib berdilar.² Ma'lumki, metafora yunoncha so'z bo'lib, metaphora – ko'chirish, ko'chirma, istiora demakdir. Metafora hosila ma'no yuzaga kelishi hodisalarining eng faoli hisoblanadi. U tilshunoslikda qayd etilishicha, hosila ma'no yuzaga kelishining hosil qiluvchi va hosila ma'no referentlari o'zaro o'xshash kelishiga asoslanadi. Bizga ma'lumki, metaforada ma'lum predmet yo voqea – hodisaning biron tomoni yoki ayrim belgisi bilan boshqa predmet yo voqea – hodisaning o'xshashligi aniqlanadi. Bunday holda predmetlarning rang, shakl, harakat – holat xarakteri, o'rin va paytga munosabati jihatdan o'xshashligi asoslanadi.

²³ Salomov G'.-Tarjima nazariyasi asoslari.-Toshkent, 1983.

²⁴ Xudoyorova D.-Navoiy DPI "Badiiy tarjimada filologik taxlil masalasi"

Metaforada bu soʻz maʼnosi oʻzgaradi, tushuncha yo tasavvur esa tamoman oʻzgarmay, balki uning dastlabki maʼlum belgisi qolgan boʻladi. Metafora - obyektiv yoki subyektiv borliqdagi oʻxshashlikning lisoniy aksi boʻlmish mutanosib semalar asosida bir narsa nomining ikkinchi bir narsa nomi oʻrnida qoʻllanishidir. Kognitiv tilshunoslikning taniqli vakili boʻlgan J.Lakkov hamda mashhur faylasuf M.Jonson fikricha, metaforalar nafaqat kundalik hayot, nafaqat til, balki tafakkur va faoliyatimizga ham kirib boradi. Bizning kundalik tushunchaviy tizimimiz ham oʻz mohiyatiga koʻra metaforikdir. D.Xudoyberganova tasnificha metaforalar:

- 1.1 soʻz shaklidagi metaforalar;
- 1.2 soʻz birikmasi shaklidagi metaforalar;
- 1.3 gap shaklidagi metaforalar;
- 1.4 mikromatn shaklidagi metaforalar kabi tasnif qilingan.

Biz ham D.Xudoyberganova tasnifiga asoslangan holda asarlarda uchraydigan metaforalarni quyidagicha tasnif qildik:²⁵

Soʻz shaklidagi metaforalar - Kognitiv soʻz metaforalar - asosan harakat va belgi bildiruvchi soʻzlar semantikasidan anglashilib, oʻzida **qiyoslanayotgan predmet**, hodisa haqidagi tushunchaning implitsit tarzida ifodalaydi. Quyida shu kabi soʻz – metaforalarga asardan misollar keltiramiz.

*Pul yoʻq. Bir tiyin ham yoʻq. Hammasini rais **supurib ketgan**. (Jimjitlik”, 38b)*

Supurmoq leksemasining bosh maʼnosi supurgi bilan chang – toʻzon, axlat va sh.k dan tozalamoq, axlat va sh.k. narsalarni sidirib olmoq, toʻplamoqdir.(OʻTIL, III, 589b) Ushbu misolda supurmoq leksemasining yoʻq qilmoq, yoʻqotmoq, barham bermoq maʼnolari (OʻTIL, III, 590b) anglashilgan.

Soʻz birikmasi shaklidagi metaforalar - Soʻz birikmasi shaklidagi metaforalar matn referentlari va lisoniy belgi oʻrtasida mazmuniy shartlanganlik vaziyatini yuzaga keltiradi.¹Masalan:

*1.Aferist u. Yomonam **shayton** odam. Lyuboyni aldaydi. (“Jimjitlik”, 30b)*

²⁵ Xudoyorova D.- Badiiy tarjimada filologik taxlil masalasi-. Navoiy DPI

Shayton arabcha soʻzdan olingan boʻlib, iblis; jin, ajina maʼnolarini bildiradi. Shayton leksemasining bosh maʼnosi odamlarni din yoʻlidan ozdiruvchi, ularni gunohga, jinoyatga, razolatga boshlovchi yovuz ruh yoki yovuz ruhlarning boshligʻi, iblis (OʻTIL, IV, 534b)

Yomonam **shayton** odam. misolidagi shayton leksemasi bosh maʼnodagi ayyorlik belgisi oʻxshatish asosida maʼno koʻchirilgan. Bu yerda shayton leksemasi ayyor, quv odam; aldanchi maʼnolarini ifodalab kelgan.

Boʻlmas—ov. Axir, bu suvlar togʻ etagidagi qanchalab oʻrmon-u oʻrmonchalarni sugʻoradi. Quritib qoʻyasan – ku. (“Jimjitlik”, 31b)²⁶. Etak soʻzining bosh maʼnosi kiyimning pastki, osilib turadigan keng qismi. (OʻTIL, V, 59b) Etak leksemasining bosh maʼnosidagi pastki qism maʼnosi oʻxshashlik belgisi asosida koʻchirilgan. Bosh maʼnodan togʻ, adir, balandliklarning pastki qismi; pastki qismidagi joy, maydon (OʻTIL, V, 60b) maʼnosi oʻsib chiqqan.

Gap metaforalar - asarlari tahlili jarayonida yozuvchining tildagi tayyor birliklardan metaforik mazmun sifatida foydalangan gap - metaforalarni uchratdik:

Faqat yoshligiga borib picha qizishib ketdi, xolos. Vaqtiki kelib, sovib, gapni orqa- oʻngiga qarab aytadigan boʻlib qoladi. (“Jimjitlik”, 11b)

Gap metaforalar - bir vaziyat belgilari asosida ikkinchi vaziyat belgilari haqidagi hukmga asoslanadi. Bunday gaplar ikki qatlamli semantik tuzilishga ega boʻladi: tashqi mazmun va ichki mazmun.¹ Masalan:

U Mirvalining bolalik yillarini endi aniq koʻz oldiga keltira boshladi. Juda shoʻx bola edi. Mushtlashishga oʻch, oʻtganning oʻrogʻini, ketganning ketmonini oladigan simobdek beqaror edi. Endi quyilib qolgandir. (“Jimjitlik”, 17b).²⁷

Ushbu mikromatnda Mirvalining shoʻxlik xarakter- xususiyati ichki mazmunga ishora qilyapti.

²⁶Salomov Gʻ. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent, 1983.

²⁷Xudoyorova D.- Badiiy tarjimada filologik taxlil masalasi-. Navoiy DPI

Matn metaforalar - metaforalarga xos bo'lgan xarakterli xususiyat shundaki, unda matn subyektining metaforik ma'noda qabul qilinishi matndan anglashilgan makropropozitsiyaning ham o'quvchi ongida metaforik ma'noda xarakter kasb etishiga olib keladi. Masalan, quyidagi mikromatnda "hukmronlik" semasi metaforik mazmun kasb etgan.

Shu topda Mirvalining vujudida vahshiy bir kuch g'alayon qilardi. Kimnidir otib tashlagisi, kimnidir qo'llari og'riguncha do'pposlagisi, nimalargadir o't qo'yib yuborgisi kelardi. Mirvali yer-u ko'kka sig'masdi. Baqirgisi, yugurgisi, boshini devorlarga urgisi kelardi. Umr bo'yi aytganini qildirgan, bir og'iz so'ziga o'nlab odamlar bab – baravar labbay deb turgan, ertalab uyg'onganda keksadir, yoshdir salomga keladigan, suv deganda daryoni boshlab keladiganlar oldida beburd bo'lib qolaveradimi? ("Jimjitlik", 210b)

Metaforalar nutqiy ta'sirchanlikni oshirib, kitobxon oldida asarning jozibasini yanada oshiradi. Asarning nutqiy ta'sirchanligini shakllantirish, kitobxon oldidagi jozibasini yanada oshirishi adib mahoratiga bog'liqdir. Said Ahmad asarlari tahlili jarayonida metaforalardan unumli foydalanganligining guvohi bo'lamiz. Asarda uchraydigan metaforalar asarning badiiy qimmatini yanada oshirib, yozuvchining kitobxon oldidagi mahoratini ochib bergan.

Shuningdek metaforalarning turlarga bo'kinishini ham til, ham adabiyot nuqtai nazaridan kelib chiqib ham kuzatishimiz mumkin. Agar ularga tilshunoslik tomonidan yondoshsak, metaforalarning 3 turiga guvoh bo'lamiz:

1. Shakliiy metaforalar
2. Belgili metaforalar
3. Harakatli metaforalar

Shakliiy metaforalar predmtlar yoki shaxslarning shakliiy o'xshashligini ifodalab keladi. Masalan **daftarning yuzi**. Belgili metaforalar ularning belgilariga ko'ra belgilanadigan metafora turidir. Masalan **og'ir kuy**. Harakatli metaforalar esa bevosita harakat bilan bog'liq bo'lgan metaforalardir. Masalan **mansabdan tushmoq**.

Adabiyot nuqtai nazaridan yondashadigan bo'lsak, ularning ikki xil turini ko'rishimiz mumkin: **vositali va vositasiz**.

Badiiy tasvir va ifoda vositalariga to'xtalar ekanmiz, biz mavjud vositalarning hammasini ko'rib chiqishni maqsad qilmaganmiz. Zero, bu vositalarning har biri alohida mashg'ulot mavzusi bo'lish uchun etarli material beradi. Yuqoridagi mulohazalar mazkur mavzuga kirish vazifasini o'tasa kifoya. Siz endi adabiyotshunoslikka oid lug'atlar, badiiy til xususiyatlariga oid ishlar bilan tanishish, badiiy asarlarni mutolaa qilish jarayonida til unsurlariga jiddiy e'tibor qilishingiz, biz to'xtalmagan yoki misollar keltirmagan vositalar mohiyatini mustaqil o'rganishingiz va o'zlashtirishingiz zarur bo'ladi.²⁸

Adabiyotshunoslikda tahlil va talqin tushunchalari juda keng qo'llanilib, ular badiiy asarni tushunish jarayonining bir-biriga bog'liq jihatlaridir. Badiiy asarni tushunish, uning mazmun mohiyatini anglash jarayonida tahlil va talqin amallari har vaqt hozirdir. Tahlil atamasi odatda ilmda "analiz" deb yuritiladigan istilohning sinonimi sifatida tushuniladi. Analiz esa, ma'lumki, butunni anglash uchun uni qismlarga ajratishni, qismning butun tarkibidagi mohiyatini, uning boshqa qismlar bilan aloqasi va butunlikning yuzaga chiqishidagi o'rnini o'rganishni ko'zda tutadi. Ayrimlar badiiy asarni tirik organizmga qiyos etishadida, "uni qismlarga ajratish jonsiz tanaga aylantirishdan boshqa narsa emas" degan qarashga tayanib tahlilga qarshi chiqadilar. Biroq bu xil qarash asossizdir. Zero, adabiyotshunoslikdagi tahlil ham — o'qish, faqat bunda badiiy asarni tadqiqotchi sifatida o'qish tushuniladi. Bu xil o'qish jarayonida tadqiqotchi badiiy asarni qismlarga ajratarkan, uning badiiyat hodisasi sifatidagi mavjudligini, undagi o'quvchi ongi va ruhiyatiga ta'sir qilayotgan, uning u yoki bu tarzda tushunilishiga asos bo'layotgan omillarni o'rganadi. Talqin atamasini biz "interpretatsiya" istilohining sinonimi sifatida tushunamiz. Talqin badiiy asarni sharhlash, uning mazmun mohiyatini, undagi badiiy kontseptsiyani idrok etish demakdir. Keng ma'noda "talqin" so'zi o'zga tomonidan aytilgan gap yoxud yozilgan asar (ilmiy, falsafiy, diniy, badiiy va h.) mazmunini anglash, uni

²⁸Xudoyorova D.- Badiiy tarjimada filologik taxlil masalasi-. Navoiy DPI

ma'lum yaxlitlikda tushunish va tushuntirish (adabiyotshunosning maqsadi tushunishning o'zigina emas, tushuntirish hamdir) ma'nolarini anglatadi. Shu ma'noda qaralsa, mumtoz adabiyotshunosligimizda, umuman, o'tmish ilmida "talqin" so'zining ma'nosi qisman "sharh", "tafsir" atamalari bilan ham berilgan. Yana ham aniqroq aytsak, talqin badiiy asardagi "obrazlar tili"ni "mantiq tili"ga o'girmoq, obrazlar vositasida ifodalangan mazmunni tushunish va tushuntirmoqdir.

Yuqorida aytdikki, badiiy asarni tushunish jarayonida tahlil va talqin amallari har vaqt hozir, ular tushunish jarayonining ikki qirrasidir. Aytaylik, "o'quvchi badiiy asarni tushundi" degani, mohiyatan, "o'quvchi asarni o'zicha talqin qildi" deganidir. Ayni paytda, uning asarni tushunishida tahlil unsurlari ham mavjud, zero, oddiy o'quvchi ham tushunish jarayonida asar qismlarini (mas., alohida epizodlarni, personajlarni, ularning turli holatlardagi xatti-harakati, gap-so'zlarini va h.), ularning o'zaro mazmuniy aloqalarini tasavvur qiladi. Ilgari ham aytganimizdek, konkret badiiy asar turli o'quvchilar tomonidan turlicha tushunilishi mumkin. Biroq shunisi ham aniqki, o'quvchilar ongidagi minglab talqinlarni umumlashtiradigan mushtarak nuqtalar ham mavjud. Demak, konkret asar talqinlari nechog'li turfa bo'lmasin, ularning chegaralarini belgilab beruvchi muayyan asos, deylik, yadro(javhar) mavjudki, barcha talqinlar shu yadro atrofida hosil bo'ladi. Bu yadro esa - badiiy asarning o'zi, badiiyat hodisasini o'zida moddiylashtirgan badiiy matndir. Ayon bo'ldiki, badiiy asarni tushunish jarayoni ob'ektiv va sub'ektiv ibtidolardan tarkib topar ekan: agar bu o'rinda talqin qilayotgan shaxsni sub'ektiv ibtido deb olsak, badiiy matn ob'ektiv ibtidodir. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, agar talqin qiluvchi shaxs badiiy matnni etarli darajada bilmasa, asar qismlarini, ularning o'zaro aloqalarini etarli tasavvur qilolmasa, uning talqini sub'ektivlik kasb etadi. Boshqa tomondan, badiiy adabiyotning obrazlar orqali fikrlashi, obrazning esa assotsiativ tafakkur mahsuli ekanligini e'tiborga olsak, talqinning sub'ektsiz mavjud emasligi ayon haqiqatdir. Chunki ijodkorning assotsiativ fikrlashi mahsuli o'laroq yaratilgan va asarda aksini topgan obrazning mazmun

qirralari faqat sub'ekt ongidagina (ya'ni, uning ham assotsiativ fikrlashi asosida) qayta tiklanishi mumkin bo'ladi.²⁹

Aytilganlar tushunish jarayonida tahlil va talqinning har vaqt hozirligining yorqin dalilidir. Oddiy o'quvchidan farq qilaroq, adabiyotshunos badiiy asarni talqin qilarkan, tahlilga tayanadi, uning talqini tahlil asosida yuzaga kelgani uchun ham ilmiy sanaladi. Shu ma'noda tahlil badiiy asarni tadqiqotchi sifatida o'qish va uqish demakdir.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, badiiy asar tarjimasining maqsadi - asarni tushunish (asarni baholash ikkilamchi maqsad). Xo'sh, "asarni tushunish" deganda nima nazarda tutiladi? Bu masalada ham adabiyotshunoslikda turlichalik mavjud: ayrimlar asarga muallif tomonidan yuklangan mazmunni tushunishni nazarda tutsalar, boshqalari asarda tasvirlangan narsalardan (ob'ektiv ibtidodan) kelib chiqadigan mazmunni tushunishni nazarda tutadilar. Bu qarashlarning birinchisiga ko'ra tushunish jarayonida tahlil etakchilik qilsa, ikkinchisida tarjimada talqinning mavqei ustunroq ekanligi tayin; birinchisi badiiy asarni uning ichki va tashqi aloqalarini birlikda olib o'rganishni (kontekstul tahlil) taqozo etsa, ikkinchisi badiiy asarga alohida mavjudlik sifatida qarab, uning ichki aloqalarini o'rganish (immanent tahlil) bilan cheklanadi. Biroq mazkur qarashlarning ikkisini ham mutlaqlashtirib bo'lmaydi, bu o'rinda "oraliq" mavqenining egallangani, har ikki yo'sindagi tahlilning ham mavjudligini, ularning bir-biridan ko'zlagan maqsadi va ahamiyati jihatidan farqli ekanligini tan olingani to'g'riroq bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, stilistik vositalar va ularning o'рни adabiyotda juda ham ulkan bo'lib, ma'noviylik, mazmundorlik va ma'noni kuchaytirish, asarga badiiy joziba berish kabi vazifalarni bajarib keladi.

²⁹Xudoyorova D.- Badiiy tarjimada filologik taxlil masalasi-. Navoiy DPI

II.BOB “Shamol ortidan yugirib” asarida stilistik vositalarningning qo’llanilishi

2.1 “SHAMOL ORTIDAN YUGURIB” ASARIDA STILISTIK

VOSITALARNING O’RNI

Bu asar Amir ismli Afg’onistonda tug’ilgan ammo taqdir taqqazosi bilan San – Fransiskoda yashaydigan bolakayning yoshligidan hikoya qiladi. Avvalo asarning nomiga to’xtalib o’tsak. *“The Kite Runner”* deb nomlangan ushbu asarning nomlanishi ham aslida stilistikaga borib taqaladi. *“Shamol ortidan yugurib”* deb tarjima qilingan asarning nomi ham aslida “Varrak yuguruvchisi” deb tarjima qilinishi kerak edi va aynan shu joyda tarjimon ma’no jihatidan tarjimaga asoslanib tarjima qilganligi sababli ham asarning nomini shunday deb o’zbekcha talqinda bergan.

Ota va og’il munosabatlarini ask ettiradigan asarning asosiy ramzi “varrak” hisoblanib, asar varrak musobaqasini eslash bilan boshlanadi. Amish Kobulda Otasi Bobo, xizmatkorlari Hasan va uning otasi Ali bilan onasizlikda hayot kechirishar edi. Taqdir taqqazosini qaraangki Amirning onasi tug’ulganida o’lib ketgan bo’lsa, Hasanning ham onasi yoshligidan tashlab ketgan va har ikkala bola ham faqat otalari bilan katta bo’lishgan edi.

Asarning bosh obrazni tahlil qilib chiqadigan bo’lsak, avvalo Amir haqida so’z yuritamiz.

- Amir – asarning bosh qahramoni, pushtun qabilasiga mansub bo’lgan, xudbin juda ham kekkaygan, o’ziga ishonmas, va otasining mehridan bebaxra bola sifatida tasvirlangan.
- Bobo – Amirning otasi, juda ham salobatli qilib tasvirlangan bu xarakter aslida juda boy inson bo’lib, pushtunlar qabilasiga mansub hisoblanadi. O’g’li bilan haqiqiy munosabatlarga ega bo’lmagan Bobo, o’z o’g’li timsolida faqat Hasanni ko’rishini hech ham yashira olmaydi.
- Hasan – statik qahramon, Amir va uning oilasing xizmatkori, haraz qabilasiga mansub, juda ham aqlli, topqir, mehribon va g’amxo’r qahramon sifatida tasvirlangan.

- Ali – Hassanning otasi, mehribon va jonkuyar xizmatkor sifatida tasvirlangan, juda ham sadoqatli va mehribon ota.
- Assef – asarning salbiy qahramoni, qo'pol, qotil, yarim german yarim afg'on qabilasiga mansub, vijdotsiz, jallod sifatida tasvirlanadi. Ularning yoshliglarida boshlangan jang tasviri asar rivojlanib borgan sari butun mamlakatda avj olgan xunrezliklarga qiyoslanadi. Oxirida esa bu jang Amirning g'olibligi bilan yakunlanadi.

Navbatda har bir bob va bo'limning tahlilini ko'rib chiqamiz.

Birinchi bobning stilistik vositalari haqida gap ketganda avvalo asarning nomini tilga olmasdan ilojimiz yo'q. *“The Kite Runner”* – asarning nomida avvalo metaforaning ishlatilishi diqqatga sazavvor bo'lib, manashu varrak ota va o'g'il o'rtasidagi munosabatlarning ramzi sanaladi. Amir hech qachon otasi Boboning nega Hasanga bunchalik mehribon ekanligini tushunmas va buni faqat “varraklar musobaqasi” sababli deb o'ylardi va jon jahti bilan musobaqada yutishni, otasini e'tiborini qozonishni istardi. Ota va o'g'ilning yagona jipslashtirivchi narsa bu “varrak” bo'lib, musobaqa davomida faqat Hasanning omadi chopar, u varrakning yo'nalishini, parvoz usulini, qayerda qanday harakatlanish kerakligini, raqiblarni qanday mag'lubiyatga uchratish kerakligini va oxirida uchib ketgan varraking oxirgi makoni qayer ekanini juda ham yaxshi bilar edi. Aynan shu bilimdonligi Amirning g'azabini qo'zgatar, lekin uning bu topqirligini o'z manfaati uchun ishlatish haqida o'ylar edi. Asarda varrak tasvirining berilishi kinoya san'atining ham yorqin namunasi sanaladi. Yuqoridagilar bilan bir qatorda varrak Amirning vijdon azobini, uning “sharmandali” g'olibligini ifodalab kelar edi. Musobaqaning asl g'olibi Hasan ekanini bilar lekin buni hech qachon tan olmas, tan ololmas edi.³⁰

Asarning boshlanish nuqtasida to ikkinchi bobgacha yozuvchi “Ishora” (foreshadowing) usulini qo'llaydi. Qisqa qilib aytsa birinchi bobning

³⁰ Noor Ronny, - Review of *The Kite Runner*-. in *World Literature Today*, Vol. 78, Nos. 3-4, September-December 2004.P-148.

to'liqligicha ayna shu ishora shaklining qollanishiga misol qilib olsa bo'ladi. Chunki Amir Afg'onistonga qaytishini oldindan bilar va bu safar u Hasanga nisbatan "yaxshi" munosabatda bo'lini, qilgan isjlaridan afsusda ekanligini aytishni istar edi.

Asarda keltirilgan "***o'xshatish***" sanatining (***simile***) yorqin namunalari va ularning tahlilini keltirib o'tamiz:

"He wrinkled his nose when he said the Shi'a, like it was some kind of disease"(P,8)

Bu yerda Amir o'zing mamlakadagi Shiyalik masxabini kasallikka o'xshatadi. Bu Assef ismli dushmaniga tegishli bo'lib, uning o'zini ham dinini ham mazxabini ham yomon ko'rishini va bu go'yoki kasallik ekanini takidlab o'tadi.

"We actually deceived ourselves into thinking that a toy made of tissue paper, glue, and bamboo could close the chasm between us." (P,74)

Ushbu jumlada Amir Hasanga eng yaxshi varrakni yasash uchun kerak bo'ladigan nasralarni tasvirlar ekan, u beixtiyor otasing u bilan munosabatini mustahkamlashga asos bo'ladigan devorlarni tasvirlaganday bo'ladi. Bu ham o'xshatish san'atining namunasi deb olish mumkin. Quydagi jumla ham bunga yorqin misol :

"... I felt like a solidier trying to sleep in the trenches the night before a major battle. And that wasn't so far off. In Kabul, fighting kites was a little like going to war" (P,53)³¹

Varraklar musobaqasini Kobuldagi bo'lajak jangning kichik boshlanishiga o'xshatgan yozuvchi aynan shu borada haq edi va u aynan shu yerda " ishora" san'atini qo'llagandi. Chunki musoboqadan ko'p o'tmay Afg'onistonda haqiqiy jang boshlangan edi. Yuqoridagi misolni yana "o'xshatish" san'atiga ham kiritish mumkin. O'zining musobaqadan oldingi holatini jang oldidan uxlolmagan askarga o'xshatgan bo'lsa, musobaqaning o'zini katta jangga qiyoslagan edi.

³¹ Noor, Ronny, Review of *The Kite Runner*, in *World Literature Today*, Vol. 78, Nos. 3-4, September-December 2004, p. 148.

"...like wolves looking at a flock of sheep" (P,230)

Assefning qarashini qo'ylarga qarab turgan bo'riga o'xshatgan bu jumla, Amirning unga nisbatan qo'rquvini ifodalab kelgan.

"...his life of unrequited loyalty drifting from him like the windblown kites he used to chase"(P,231)

"A cluster of men sitting on their haunches, like a row of crows..."(P,243)

Keying jumlada esa Hasanning Amirga hayotini butun bag'shida etganligi ifodalab beradi. Navbatdagi jumlada esa odamlarning qatl marosida yig'ilib turganini qarg'alarining yemak uchun yig'ilishib turishganiga o'xshatishadi.

"... he wept like a child for the rest of that night.." (P,207)

Ushbu jumlada hasanning tuni bilan Amir va otasi uchun qayg'urib yig'lab chiqqani bolaning yig'lashiga o'xshatilgan edi.

"I could see his internal smile, as wide as the sound of crickets swelled in the gardens" (P,173).

Uning kulgusini butun boshli kriket maydonidagi tomoshabinlar hayqirig'iga o'xshatish bo'lgan ushbu jumlada Hasanning shodon kulgusi aks ettirilgan.

"Just look at her. So maghbool, like the moon". (P,178)

Amirning bo'lajak xotini Surayyoning tasviri keltirilgan ushbu jumlada ikki stilistik vosita bir vaqtning o'zida qo'llangan: o'xshatish san'ati orqali uning go'zalligi oyga o'xshatilayotgan bo'lsa, metafora usuli orqali u husnini oyga ko'chiryapti.

"...Little shapes formed behind my eyelids, like hands playing shadows on the wall..." (P,84)

Ota va o'g'ilning yurtdan ketayotganlarida, mashinaning ichida bo'layotgan yovuzliklar tasvirlangan ushbu jumlada Amirning qo'rquvi ifodalangan bo'lib, u ko'z oldiga kelayotgan soyalarni, qo'rquvining shaklini go'yoki devorda quyosh nurida jilvalanayotgan soyalarga o'xshatgan edi.

"...Below us, Wazir Akbar Khan's white walled, flat-topped houses gleamed in the sunshine, the laundry hanging on clotheslines in their yards stirred by the breeze to dance like butterflies..." (P,91)

Ikki do'st do'stliklari ramzi bo'lgan anor daraxti o'sgan tepalikda o'tirishar ekan, vazir Akbarxonning hovlisiga qarab turib, u yerda ilib qo'yilgan kiyimlarning shabbodada hilpirashini go'yoki kapalaklarning raqslariga qiyoslashadi.

"All I know is that, when I finally stopped, exhausted and panting, Hassan was smeared in red like he'd been shot by a firing squad" (P,92-93).

Asardagi **"kinoya" (irony)** usulida berilgan misollarni quyda tahlil qilib o'tamiz:

"...Which was ironic, because that was the winter that Hassan stopped smiling..." (P,8)

Hasanning "doimo kulib turadigan labi" taviri berilgan ushbu jumlada Hasan qanday holatda tursa ham uning tirtiq lablari doimo kishiga kayfiyat bag'ishlab turishini ifodalar edi. Lekin Hasanning tug'ulgan kunida Babaning qilgan sovg'asi ya'ni uning labini operatsiya qildirishi asarning mazmunini tubdan o'zgartirib yuboradi, ya'ni u endi hech ham kulmas va hech kimga kulgi baxsh eta olmas edi.

"...He smoked all the way to the car and all the way home..." (P,156)

Ushbu jumlada Boboning kasallik xolati keltirilgan bo'lib, u o'zini kasalligini bilib turib ham tamakini yo'l bo'yi chekib ketavardi. Chunki u allaqachon o'limni qabul qilgan va endi navbat Amirga kelgan edi.

Keyingi boblardagi **"kinoya"** sa'atini namunalariga misol qilib quydagilarni keltirish mumkin:

- *Both Hassan and Sohrab save Amir from Assef with the slingshot(P,12).*
- *"I'm the one holding the slingshot. If you make a move, they'll have to change your nickname from Assef 'the Ear Eater' to 'One – Eyed Assef'..." (P, 45)*

- *"Sohrab had the slingshot pointed to Assef's face." (P,304).*³²
- *"He got mad and hit me harder, and the harder he kicked me, the harder I laughed." (P,297).*
- *"My body was broken – just how badly I wouldn't find out until later – but I felt healed. Healed at last. I laughed." (P,303)*

Yuqorida keltirilgan jummalarni bir bir tahlil qiladigan bo'lsak, ragatka avvalo Hasanning Amirni qutqarib qolganligiga sabab bo'lgan bo'lsa, keying sahnada Suxrob Hasanning o'g'li ham aynan shu ragatka bilan Amirni hayotini saqlab qolganligi kinoya san'atining bir namunasi sanaladi. Keyingi jumlada Hasanning Assefga qilgan po'psasi kinoyali ravishda aytib o'tilgan. U shunday deydi "sen quloq kesuvchi Assef bo'lsang, men bir qo'lli ragatgachi Hasanman. Hozir bir qo'lim bilan bir ko'zingni o'yib olaman shundan keyin sen Bir ko'zli Assef bo'lib qolasan". Navbatdagi jumlada esa Hasanning Assef bilan bo'layotgan jangi davomida kulganligi kinoyali aytib o'tiladi. Hasan o'zini vijdon azobidan qutilganligidan baxtiyor bo'lib kulayotgan bo'lsa, Assef bundan jahli chiqib zaharxanda qilib kulayotgan edi.

Navbatda asardagi ***"shaxslantirish, jonlantirish"* (personification)** san'ati qo'llangan jummalarni keltiramiz:

*"And I could almost feel the emptiness in Soraya's womb, like it was a living, breathing thing" (P,189).*³³

Ushbu jumlada xotining sochlarini g'oyoki nafas olayotgan nasaga qiyoslaydi.

"I tried closing my eyes, letting the wind slap at my cheeks, opened my mouth to swallow the clean air"(P,134)

Bu jumlada u ko'zlari yanoqlariga shamolni tegishiga ruhsat berganini jonlantirib ko'rsatsa, o'gizini go'yoki havoni tishlamoqchidek keng ochganligini tasvirlaydi.

"Our twin shadows dance on the rippling grass"(P,172)

³² Review of *The Kite Runner*, in *Publishers Weekly*, Vol. 250, No. 19, May 12, 2003, P.43

³³ Review of *The Kite Runner*, in *Publishers Weekly*, Vol. 250, No. 19, May 12, 2003, P.43

Soyalarning raqsini mayin maysa usida mavjlanishini jonlantirgan ushbu jumla ham bir misoldir.

“My heart was doing pirouettes in my chest (P,162). ”

Amirning baxtini ifodalagan ushbu jumlada uning yuragi ko'krak qafasida raqsga tushayotganini jonlantirib beradi.

“Now only the folded clothes greeted me (P,80).

Kiyimlarning bo'm-bo'sh tasvirini jonlantirilgan ushbu jumlada otasining o'limidan keyin uning holatini aks ettiradi.

Quyidagi gaplarda boshqa bir stilistik vositaning **“mubolaga” (hyperbole)** ishlatishiga guvoh bo'lamiz:

“...his teeth were blinding white (P, 296). ”³⁴

Shifokorning tishlarining oqligini goyoki ko'r qiladigan darajada ekanini ifodalagan ushbu jumlada mubolag'aning yaqqol ko'rish mumkin.

“Because when he was around, the oxygen seeped out of the room (P,89)”

Hasanga nisbatan aybdorlik hisini qilgan Amirning holatini ifodalagan ushbu jumlada Hasan kirib kelgan vaqtda xonada havoning yetishmay qolishi mubolag'a qilingan.

“...A pair of steel hands closed around my windpipe...(P,134). ”

Amirning holati ifodalangan ushbu jumladaa ham uning nafas ololmayotganligi mubolag'a san'ati orqali yoritib berilgan.

“...And his temples melted (P,158).

Boboning kasallik xoladi ifodalangan ushbu jumlada ham uning jismoniy xolati mubolag'a ostiga olingan. Uning kuchi kundan kunga so'lib borayotganligi eriyotganga qiyoslangan.

Quyida **“ishora” (foreshadowing)** usulining ishlatilishiga misollar keltirib o'tamiz:

“...one - eyed Assef ... ” (P,25)³⁵

³⁴ Stuhr, Rebecca, Review of *The Kite Runner*, in *Library Journal*, April 15, 2003, p.122.

³⁵ Review of *The Kite Runner*, in *Publishers Weekly*, Vol. 250, No. 19, May 12, 2003, p.43.

Ushbu jumla “ishora” (foreshadowing) usuling namunasi bo’lib, Amir va Hasan yoshligida Assef bilan to’qnash kelganlari Hasan unga qarada “ *Bitta ko’zingni o’yib o’laman va bir ko’zli Assef bo’lib qolasan*” degan jumlaning aytgan edi. Lekin buni u emas uning o’g’li Suxrob amalga oshirdi. Otasining qilolmagan ishini o’g’li amalga oshirdi. Yana bir “ishora” Amirning hayotini saqlab qolgan Hasanga garchi o’z minnatdorligi bildirolmagan bo’lsa ham, uning o’g’lini qutqarish orqali Amir vijdon azobidan qutuladi.

"On the wood-paneled walls, I saw pictures of the pictures of the people who would become my new family" (p,167).

Ushbu jumla Amirning bo’laj oilasining suratini ko’rganligiga ishora qiladi. Voqealar rivojida u haqqatdan ham suratdagi odamlar bilan bir oila bo’ladi.

"It was a cool, gray morning, and Baba was squatting next to me...." (P,89)

Navbatdagi gapda tasvirlangan havoning sovuq va yoqimsizligi ularning kelajaklariga ishora edi. Oradan ko’p o’tmay Amirning otasini vafoti uni shunday holatga solib qoygan edi.

"One last gift for Amir." (P,130).³⁶

Jumla oxirida ishlatilgan “so’nggi” so’zi Amirga otasining qilgan eng oxirgi sovg’asi ekanini aytadi. Otasi bundan so’ng sovg’a bera olmas edi.

"Then, two weeks later, I caught him coughing a wad of blood-stained phlegm into the toilet (P,153).

Bu ishora asarning asosiy ishorasi desa ham bo’ladi. Otasining yo’talganidan qon izlari qo’lgan ro’molchani topib olgan o’g’il uning endi kasal ekanini va o’limi yaqinligini anglab yetgan edi.

"Ahmad had epilepsy...wore a wool vest...thick-rimmed glasses...in his wool vest and winter coat...his schoolbag filled with books and pencils" (P,52)

Ushbu jumlada yozuvchi **“ifodalilik ramziylik”** san’atidan foydalangan. Asarning eng yuqori nuqtasi (climax) bu Amir Hasan uning ukasi ekanligi

³⁶ Stuhr, Rebecca, Review of *The Kite Runner*, in *Library Journal*, April 15, 2003, p.122.

topganligi deb qaraladi. Keying boblarda u quydagi jumlar “Ramziylik”dan foydalanilgan:

“I dream that lawla flowers will bloom in the streets of Kabul again and rubab music will play in the samovar houses and kites will fly in the skies (P,230)”³⁷

O’tmishda varrak uyat, vijdon azobi, aybdorlikni tasvirlagan bo’lsa, asarning oxiriga kelib varrak baxt va azob, uqubatlardan qutilish, ko’ngil xotirjamligini ifodalaydi.

Asarda davomidagi asosiy ramziylikni Hasanning “tirtiq labi” tasviri edi. Uning bu labi jarrohlikda keyin ham o’z izini qoldirishiga qaramasdan, har doim Amirning g’azabini qo’zgatar va musobaqadan keyin, Assef bilan bo’lgan janjaldan keyin Amir ham labini xuddi Hasanning labiga ox’shatib kesgan edi. Bu quydagi ramzni ifodalab keladi. Avvalo o’zini Hasan uchun qurbon qilgani, aybi uchun tovon to’laganligi bolsa, keyingisi o’zini vatanidan ayrilganini ya’ni ikkiga bo’lganini ifoda etadi.

"I drove past tree-shaded parks that smelled like bark, past strip malls big enough to hold five simultaneous Buzkashi tournaments" (P,135).

Ushbu jumlada binolarning tasviri ramziylikning bir timsolini ifodalab kelgan. Quyidagi jumalarda ham biz ramz,simvol san’atining namunalarini kuzatishimiz mumkin.

- *"I didn't want to see the murderous look on Baba's face" (P, 119).*
- *"I saw shapes huddled around the room, their silhouettes thrown on the walls by the dim light of a pair of kerosene lamps" (P,119).*
- *"My lids back an rubbed a lemon on them" (P,122).*
- *"He watched me joking with Sharif, watched Soraya and me lacing our fingers together, watched me push back a loose curl of her hair. I could see his internal smile, as wide as the skies of Kabul on nights when the*

³⁷ Review of *The Kite Runner*, in *Publishers Weekly*, Vol. 250, No. 19, May 12, 2003, p.43.

poplars shivered and the sound of crickets swelled in the gardens" (P,173).

- *Hassan's new way of life and new are of living "I do not even..."* (P,204-205)

Asarning tahlil qilish darajasi juda keng bo'lib, asar davomida ularning har birini juda chuqur tahlil qilishda asarning har bir bobini diqqat bilan o'rganish va tahlil qilishni talab qiladi.

Masalan fonetik stilistik vositalarning birini ishlatishini quydagi misolda ko'rish mumkin:

- *"Kids hooted and screamed with each crackle and whoosh"* (P,100).
- *"A low murmur buzzed through the basement, beneath it the sound of water drops trickling somewhere, and, something else, a scratching sound"* (P, 119).³⁸
- *".... rat-a-tat-ta of gunfire* (P,35)."

Ushbu jummalarda **"taqlid" (onomatopoeia)** san'tini ko'rish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, asar ramziy va qaysidir ma'noda yozuvchining hayotini ifodalaganligi uchun ham, stilistik vositalar bilan juda ham boy sanaladi. Biz ushbu paragrafimizda shulardan namunalar keltirib qisqacha tahlil qilib o'tdik aslida asar ma'no va mazmun jihatdan bundan ham ko'roq vositalarga ega sanaladi.

³⁸ Stuhr, Rebecca, Review of *The Kite Runner*, in *Library Journal*, April 15, 2003, p.122.

2.2 ASARDAGI METAFORALARNING O'ZBEKCHA TARJIMADA BERILISHI

Asardagi metafotalarni tahlil qilishdan oldin “metafora” nima ekanligi haqida qisqacha to'xtalib o'tsak. Metafora – yunoncha so'zdan olingan bo'lib, ko'chirim, ko'chirish degan ma'nolarni anglatadi. So'z yoki iboralarni o'xshatish yoki o'xshatishga asoslangan ko'chma ma'noda ishlatiladigan va shunday ma'noda ishlatiladigan so'z yoki iboralardir. Yuqorida keltirilganidek asarning bosh mavzusi ya'ni sarlavxasining o'zi ham metaforaning yorqin namunasi sanaladi.

“The kite runner” – asarning nomida avvalo metaforaning ishlatilishi diqqatga sazavvor bo'lib, manashu varrak ota va o'g'il o'rtasidagi munosabatlarning ramzi sanaladi. Bu turdagi metafora ingliz tilida “cognitive metaphor” turi bo'lib, o'zbek tilida so'z metaforasini tashil qiladi. Shuningdek u harakatli metafora turi bo'lib, o'zbekcha tarjimada berilishida ham “shamolning ortidan quvish” ya'ni so'z birikmasi metaforasidan foydalanilgan.

Amir hech qachon otasi Boboning nega Hasanga bunchalik mehribon ekanligini tushunmas va buni faqat “Varraklar musobaqasi” sababli deb o'ylardi va jon jahti bilan musobaqada yutishni, otasini e'tiborini qozonishni istardi. Ota va o'g'ilning yagona jipslashtirivchi narsa bu “varrak” bo'lib, musobaqa davomida faqat Hasanning omadi chopar, u varrakning yo'nalishini, parvoz usulini, qayerda qanday harakatlanish kerakligini, raqiblarni qanday mag'lubiyatga uchratish kerakligini va oxirida uchib ketgan varraking oxirgi makoni qayer ekanini juda ham yaxshi bilar edi. Aynan shu bilimdonligi Amirning g'azabini qo'zgatar, lekin uning bu topqirligini o'z manfaati uchun ishlatish haqida o'ylar edi. Asarda varrak tasvirining berilishi kinoya san'atining ham yorqin namunasi sanaladi. Yuqoridagilar bilan bir qatorda varrak Amirning vijdon azobini, uning “sharmandali” g'olibligini ifodalab keltar edi. Musobaqaning asl g'olibi Hasan ekanini bilar lekin buni hech qachon tan olmas, tan ololmas edi.

Asarning boshlanishida quydagi jumla metaforaning yorqin namunasini ko'rish mumkin:

“...People say that **eyes are the windows to the soul.**” (P,8)

“... Axir ko'zlarni bejizga **ko'ngil oynasiga** o'shatishmaydiku” (B,8)

Metaforaning “**dead**” turiga mansub bo'lgan ushbu gapning o'zbekcha tarjimada berilishida tilshunoslik nuqtai nazaridan “**shakily metafora**” , adabiyot nuqtai nazaridan esa vositali metafora shakli qo'llanilgan bo'lib, tarjima jarayoniga ham ma'no ham shakl jihatidan tog'ri tarjima “**formal equivalence**” dan foydalanilgan holda tarjima qilingan.

Xizmatkor Ali tasvirida berilgan ushbu jumladan oldin uning tashqi ko'rinishi, oyog'ining oqsoqligi, falajligi natijasida yuzida qotib qolgan mavhum ifoda tasvirlangan va keyin aynan uning ko'zlari uning qalbidagi ifodani tasvirlay olishi mumkin ekanligi aytib o'tilgan edi. Tarjimaga diqqat qilsak jumlaning shakli so'zma so'z tarjima qilinmagan bo'lsa ham, tarjima jarayonida metafora saqlanib qolingan va u aynan o'zbekcha ibora metafora bilan berilgan.

“...But mostly because, as the trees froze and ice sheathed the roads, **the chill** between Baba and me thawed a little.”(P,40)³⁹

“...Asosiysi, daraxtlar oppoq libosga o'ralib, yo'llar muz qoplaganda, Bobo bilan **qahraton** munosabatlarimiz aksincha iliqlashardi. Chunki varrakka bo'lgan qiziqishimiz har ikkalamizni ham ancha yaqinlashtirardi.” (B,32)

Ota va o'g'il munosabatlarini ifodalagan ushbu jumlada Amirning otasi bilan bo'lgan munosabatlar qish, sovuq, muzli bo'lishiga qaramay ozgina iliqlashganligini bu esa albatta varrakga bo'lgan qiziqishlari tufayli ekanligini aytib o'tadi. Asardagi metaforaning turi haqida gapirib o'tsak avvalo u metaforaning “**extended metaphor**” turiga mansub bolib, tarjimasi haqida gapirar ekanmiz o'rtalaridagi munosabatlarini qishning sovuq kunlariga teskasi qilib iliqlashib borayotgan iliq munosabatlarga tenglashtiradi. Tarjima jarayonida tarjimon ma'no jihatidan tarjima qilgan hisoblanadi va bu “**semantic equivance**” sanaladi. Agarda jumla so'zma so'z tarjima qilingandida edi **belgili**

³⁹ Hosseini, Khaled, *The Kite Runner*, Riverhead Books, 2003.

metaforaga misol bo'la olardi. Lekin gapning o'zini gap metaforasi turiga kiritsak bo'ladi.

*"...I only knew the memory lived in me, a perfectly encapsulated **morsel of a good past, a brushstroke of color on the gray, barren canvas** that our lives had become." (P,123)*

"...ha, men o'sha paytlardagidek lazzatni, quvonchni boshqa hech qayerda uchratmadim. (B,76)

Vatandan qochib ketayotgan ota o'gil sahnasini aks ettirgan ushbu sahnada Amirning o'tmishni eslagan xotiralari aks ettirilgan. Ingliz tilida berilgan jumlada metaforaning **"implied metaphor"** turi ishlatilgan bo'lib, bu ham tarjimaning vaziyatga qarab moslashtirilganligidir **"situatsional equivalence"**. Asarning tarjimasida metaforaning tilshunoslik jihatidan **harakatli** turi ifodalangan bo'lib, unda shakl jihatidan **gap metafrasi**dan foydalanilgandir. Qochib ketayotgan mashinaning ichidagi turli xil xolatlar, bolalarning yig'isi, kasal odamlarning inqillashlaridan qo'rqayotgan Amirga otasi yaxshi narsalarni o'ylashini maslahat berganida Amir bolaligi va undagi ajoyib xotiralarni eslab ularni qiyoslab borardi. Lekin afsuski o'zbekcha tarjimada berilish jarayonida ular tarjima qilinmagan, ular shunchaki ma'no jihatidan moslashtirib qo'yilgan edi. Bu esa tarjimaning kamchiligi sanaladi.

"Baba...I helped him in a clean white shirt...nothing the two inches of empty space between the collar but thought of all the empty spaces Baba would leave behind when he was gone." (P,163)

"...ertasi kuni otamning oxorli, joyravi kiyimlarini kiyishga yordamlashdim. Bir paytlar uning ,miqti gavdasidan to'lib turadigan kastyumi endi xuddi xodaga ilingandk shalpayib qopti..." (B,97)

Otasining kasallikdan keyingi holati ifodalangan bu jumlada, Amir otasining o'tmishdagi gavdasini eslar ekan uning bu holatini xodaga kiydirilib qo'yilgandek shalpayib qolganini tasvirlar ekan u beixtiyor uning gavdasini xodaga qiyoslaydi. Metaforaning **"absolute metaphor"** shakliiy turidan foydalanilgan ushbu jumlada, tarjima jarayonida metaforalar to'liqligicha

tarjima qilingan bo'lib, ma'no jihatidan tarjima **“semantic equivalence”** asosida tarjima olib borilgan.

“...My heart a jackhammer in my chest...(P,304).

“... yuragim namuncha bezovta tepmasa? Naq qovurg'amdan chiqib ketagudek...”(B,197)

Ushbu gapda metaforaning **“root metaphors”** harakatli turidan foydalanilgan bo'lib, tarjima asosan vaziyatga qarab **“situatsional equivalence”** asosida tarjima qilinganligi sababli unda **vositali metafora** turidan foydalanilgan sanaladi. Ushbu gapda **so'z metafora** usulidan foydalanilgan. Suxrobning kalxonada yotgan xolati tasvirlangan bo'lib, uning ahvolini bilolmagan Amirning yuragining o'rnidan chiqib ketayotgandek urayotganligi tasvirlangan. Ingliz tilidagi jumlada ishlatilgan metafora o'zbekcha tarjimada berilmagan bo'lib shunchaki o'xshatish orqali berilgan.

“...I see the sun rising in a buttermilk sky...” (pg., 349)

“... ko'zimni ochganinda tong otgan, xona quyosh nurlari bilan to'la edi” (198)

Keyingi xolatlar aks ettirilgan ushbu jumlada Amir Suxrobning yonida uxlab turganidan keyingi xolati aks ettirilgan bo'lib, u tongning otishini xuddiki sutday oq osmonga qiyoslaydi. Ingliz tilida metaforaning **“extended metaphors”** shaklidan foydalanilgan bo'lib, unda holat tasviri berilgan. Lekin afsuski bu jumla o'zbek tiliga ma'no jihatdan tarjima qilinganligi sababli unda metaforaning uchratish mumkin emas.

“...Your father, like you, was a tortured soul...” (pg,301).

“...otang sening timsolida hamisha o'zini ko'rardi va shu bois senga nisbatan qattiqqo'l va talabchan edi...”

Rahimxonning Amirga otasinni tasvirlab berayotgan ushbu jumlasida, inglizcha **“root metaphor”** metaforaning o'zbekcha tarjima jarayoniga berilida ma'no jihatdan **“situatsional equivalence”** tarjima qilingan bo'lib, uni tarifini keltirar ekan, uni aybini yashirishga urinib uning qattiqqo'lligini xuddi o'ziga o'xshati. O'zbek tiliga bu gap metaforasiz tarjima qilingan bo'lib, agar so'zma

soʻz tarjima qilinganida edi metafroning shaklan **ibora** turidan foylanilgan boʻlinardi. bu orqali u otasining Amirga boʻlgan sovuq munosabati ortida doimo oʻzini koʻrishga intilganligini yoritib beragan. Lekin bu jumla ham tarjima jarayonida nimagadir odiiy gap asosida tarjima qilinib qoʻyilgan xolos.

“...*My fathers house was the picture of fallen splendor (pg, 244).*”

“...*ancha nurab qolgan boʻlsada, hali bus-butun. Otamning hovlisi esa qulab borayotgan hashamatning surati edi ...*”(bet125)

Ancha yillardan keyin yurtiga qaytib kelgan Amir ota hovlisini koʻrib qolganini ifodalagan ushbu jumlada, Amir oʻtgan yillar davomida juda ham salobatli va chiroyli koʻringan ushbu hovlining qulab tushganini koradi va uni xuddi otasining oʻlimi kabi deyarli yoʻq boʻlib borayotganini ifodalaydi. Ingliz tilidagi jumlada metaforaning “**visual metaphor**” shakli qoʻllanilgan boʻlib, gap tarjima jarayonida “**situatsional equivalence**” uni shakl jihatidan **soʻz birikmasi metaforasi** orqali berilgan boʻlib, u tilshunoslik jihatidan **harakatli metafora** turiga va adabiyot nuqtai nazaridan **vositali metafora** sanaladi. Oʻzbek tilidagi tarjimasida ham metaforadan foydalanish orqali u bu jumlaning juda aniq va taʼsirli ifodalab bergan.

“... *Our happy little interlude would have come to an end (P, 95).*”

“... *Otam xizmatkorlarni almashtirish haqidagi fikrimdan soʻng mendan sal ranjigandek edi...*”(B,60)

Hasan bilan boʻlgan tushunmovchiliklarni xal qila olmagan Amirning hayoliga xizmatkorni almashtirishdan boshqa hech nima kelmadi. Lekin afsuski uning bu fikri otasi bilan boʻlgan munosabatlarini yoʻlni oxiriga keltirib qoʻygandek boʻlgan edi. Ingliz tilidagi jumlada “**conceptual metaphors**” metafora shakli aniq qoʻllanilgan boʻlsada, ekin oʻzbek tilida tarjimada berilishida vaziyatga koʻra tarjima usulidan “**situatsional equivalence**” foydalanganligi sababli bu jumla ham shunchaki tajima qilib qoʻyilgan, oddiy tajima usulida foydalanilgan xolos. Agar soʻzma soʻz tajimada berilganida edi oʻzbekchada shakl jihatidan **birikma metaforasi**, tilshunoslik nuqtai nazaridan

metaforaning **belgili turi**, va adabiy jihatidan **vositasiz** shaklidan foydalanilgan bo'lar edilar.

*"...My father was **a force of nature**, a towering Pashtun specimen with a thick beard, a wayward crop of curly brown hair..." (P,9)*

"...Bobo chindan ham baland bo'yli, alpqomatli, paxlavon, chorskesar odam edi..." (B,7)

Otasining tashqi ko'rinishi tasvirlangan ushbu metafora ham diqqatimizni tortdi. Inglizcha asarda berilgan ushbu jumlada metaforaning **"primary metaphor"** shaklida berilgan bo'lib, Boboning ko'rinishini tabiat in'omi deya tariflangan bu gap nimagadir o'zbekcha tarjimada berilayotganida boshqa gapma'no jihatdan tarjima **"semantic equivalence"** turidan foydalanilganligi sabali unda tarjima qilinishi natijasida uning metaforik xususiyati yo'qqa chiqqan. Agar berilgan vaziyatda to'g'ri tarjimada berilganida edi, unda metaforaning shakl jihatidan **ibora turi**, tilshunoslik jihatidan **belgili** va adabiyot tomonidan **vositali metafora** kabi turlaridan foydalanilgan bo'lar edi.

"...Long before the Roussi army marched into Afghanistan, long before villages were burned and schools destroyed, long before mines were planted like seeds of death and children buried in rock-piled graves, Kabul had become a city of ghosts for me" (P,136).

"... vatanimizda qirg'inbarot davom etar, har kuni qanchadan- qancha begunoh odamlar, keksalar, ayollar va bolalar xayot bilan vidolashar va aholi jon hovuchlab kun kechirar edi..." (B,125)

Afg'onistondagi qirg'inbarotliklarni tasvirlagan ushbu jumlada aholining qirilib, shaharning arvohga aylanib qolganini ifodalagan ushbu metaforik jumla ingliz tilida metaforaning **"conversional"** shaklidan foydalanilgan bo'lib, tarjima jarayonida ma'no jihatdan **"semantic equivalence"** tarjima qilinishi orqali tarjima qilinmagan bo'sada, uning ma'nosini boshqa uslub ya'ni birikmalar orqali yuzaga chiqqan va bu yurda o'zbek tilida shakl jihatdan **gap metaforasi**, tilshunoslik nuqtai nazaridan olib qarasak **shakliy metafora** turi va adabiyot jihatidan **vositasiz metafora** kabi turlari sanaladi.

"... *America was a river, roaring along, unmindful of the past...*" (P,136).

"... *Amerikaning go'zal manzarasi esa xayotdan bahra olishga noxush hishlarni va xotirlardan ko'z yumushga undaydi...*" (B,84)⁴⁰

Amerikani o'zining yurtiga qiyoslaloyotgan Amir uning go'zaligini go'yoki yashashga undovchi ajoyib motiv sifatida tasvirlanadi. Asarda berilgan ushbu jumlada "**primary metaphor**" metaforaning ma'no jihatdan tarjimaga asoslanganligi sabali "**semantic equivalence**", tarjimada berilishida esa uning xususiyati ma'nosi saqlab qolingan xolda ishlatilgan va shunda ham bu jumlada tilshunoslik jihatdan **belgili metafora**, adabiyotshunoslik tamonidan **vositasiz shakli** va shakl jihatidan u **so'z birikmasi metaforasi** turidan foydalanilgan.

"...*Life is a train, get on board*" (P,185).

Hayotni go'yoki poyezdga o'xshatilgan ushbu jumlada ham metaforaning yana bir misolini ko'rishimiz mumkin. Ingliz tilida berilgan ushbu jumlada metaforaning "**primary metaphors**" shaklidan foydalanilgan bo'lib, lekin bu jumla tarjima jarayonida tushirib qoldirilgan.

"...*it is a heartbreaking sound...*" (P,209)

"...*uning ovozi yurakni ezguday yangrar edi chi...*" (B,185)

Farzonaning Amirni ko'rgan vaqida holatini ifodalangan ushbu jumlada uning tovushi yurakni ezadiganday jaranglayotganini metafora usulida yoritib berilgan. Ingliz tilida ushbu jumlada metaforaning "**conceptual metaphor**" shaklidan foydalanilgan bo'lib, tarjimada ham xuddi shu usul saqlanib qolgan bo'lib "**formal equivalence**", unda metaforaning tilshunoslik jihatdan **belgili turi**, shakl jihatidan **so'z metaforasi** va adabiyot nuqtai nazaridan ilib qarasak, **vositasiz** kabi shakllaridan foydalanilgan, shu bilan birga o'xshatish san'ati ham qo'llanilgan.

"...*He's me. I am wrestling the bear* (P,295)."

"... *bu men edim, men ayiqni yenggan edim...*" (B,172)⁴¹

⁴⁰ "Shamol ortidan yugurib" Xolid Husayniy/tarjimon Rustam Jabborov.- Toshkent: yangi asr avlodi, 2016

⁴¹ "Shamol ortidan yugurib" Xolid Husayniy/tarjimon Rustam Jabborov.- Toshkent: yangi asr avlodi, 2016

Asef bilan kurashdan so'ng kasalxonaga tushgan Amir tushida otasi ko'radi. Otasi ayiq va o'zini tushida korganini bayon qilgan Amir ayiqni yengayotgan jasur jangchini sezadi va bu jangchi uning o'zi edi. Ushbu jumlada ingliz tilida metaforaning ***“implied metaphor”*** shakli qo'llanilgan bo'lib, tajrima jarayonida ***“formal equivalence”*** bu jumla o'z shaklini saqlab qolgan bo'lsada bu yerda ***“vositasiz”*** shaklidan foydalanish orqali u ayiqni Asef deb qarasak, Amirning uning ustidan qozongan g'alabasi deb tushunish mumki. Bu yerda yashirin metaforani yaqqol isboti brilgan.

"My nose caught fire with each breath"(P,135)

Men har nafas olganda olovda nafas olgandek burnim yonib borar edi.(B,147)

Amirning Asef bilan jangdagi holatini ifodalagan bu jumlada ham metaforalarning bir turi ishlatilgan bo'lib, uning ingliz tilidagi talqinida ***“root metaphor”*** turidan foydalanilgan. O'zbek tilida tarjima jarayonida ***“semantic equivalence”*** dan foydalanib tarjima olib borilganligi sababli, undagi metaforik xususiyat saqlab qolinga. Bu jumla o'zbek tilida shaklan ***“gap metaforasi”*** turiga mansub bo'lib, tilshunoslik tarafdin uning turi ***“harakatli metafora”***, adabiyot nuqtai nazaridan olib qarasak u ***“vositali metafora”***ni ifodalab keladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, asarning ingliz tilida berilgan metaforalar soni juda ham ko'p bo'lib, lekin tarjima jarayonida ularning ba'zilar xuddi o'zidek tarjima qilingan bo'lib, ba'zilar boshqa stilistik vositalar orqali berilgan yoki umuman oddiy so'zlar asosida shunchaki ma'noni chiqarib qo'yishgan edi.

XULOSA

Har millatning ko'zgusi adabiyoti sanaladi. Adabiyotning boyligi va rangbarangligi shu millatning naqadar boy ekanligini ko'rsatib beradi. Ayniqsa roman, asar va trilogiyalar davomida nafaqat o'sha qahramonlarning hayoti bilan tanishib boramiz balki shu bilan bir qatorda o'sha millat, uning hayot tarzi, tushmush kechirish yo'llari, urf odatlari, an'analari haqida ham bilib olish mumkin. Chunki adabiyot ularning jahonlarga olib chiqadigan bir usuldir.

Ushbu bitiruv malakaviy ishiga yakun yasab xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, hech bir davrda tarjimaga murojaat qilinmasdan qolgan emas.

Tarjima insoniyat tarixida do'stlik ko'prigi bo'lishdan tashqari, madaniyat va ma'rifat sari ochilgan keng yo'ldir. Tarjima qiyin, ammo maroqli san'atdir. Biz uchun yot bo'lgan tilda yaratilgan badiiy asarni o'z tilimizga o'girish, badiiy fikr yaratish naqadar zavqli. Ma'lumki, badiiy tarjima bevosita yoki bilvosita amalga oshiriladi. Shu paytgacha vujudga kelgan tarjimalar zikr etilgan vositalar orkali o'z kitobxoniga yetib keldi. Endilikda o'zbek adabiyoti namoyondalarning bevosita, ingliz, nemis va fransuz adiblarining asarlari bevosita tarjima qilinadi. Chunki mamalakatimizda chet tillarni o'rganishga ochib berilgan yo'l kelajakda albatta o'z samarasini beradi. Keyingi bir necha yil ichida bevosita chet tillardan qilingan tarjimalar xam paydo bo'ldi. Xattoki ayrim shoirlarimiz asl nusxadan tarjima qilish maqsadida ingliz va nemis tillarini o'rganishga kirishdi. Ularning bunday yo'l tutishi maqtovg'a arziydigina emas, balki tarjima sifatining yuqori pog'onaga ko'tarilishi uchun qo'yilgan ilk qadamlar desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishidan quydagi xulosalarga kelindi:

1. Xolid Husayniy ham garchi Amerikada yashab ijod qilgan bo'lsada o'zining asarlarida o'z millatining yashash tarzini, qiyinchiliklari, oilaviy an'analarni yoritib borish bilan birga undagi kamchiliklar, tanganing ikkinchi tomonini ham yoritib boraver edi. Uning "Shamol ortidan yugurib" asari ota va o'g'il munosabatlarini ifodalagan bo'lsa, boshqa

asarlarida oilaning turli mavzulariga murojat edtadi. Masalan “Ming bir quyosh shulasi” asarsida yozuvchi tomonidan yaratilgan ona va qiz munosabatlari va taqdiri asosida oilalarning va millat taqdirining qay darajada ekanligini yoritib beradi.

2. Yozuvchining “Shamol ortidan yugurib” asarini tahlil qilish jarayonida asarning bosh qahramonlari Amir, Bobo, Hasan va Alilarning taqdiri bilan bir qatorda millat taqdirini ham kuzatib borildi. Uning yozilish usuli, tili garchi boshqa millatning kechinmalarini aks ettirib turgan bo’lsada, kitobxonni o’ziga torta oladigan juda ham o’tkir sudjetga ega, insonlarning ichki kechinmalari haqida bayon qila oladigan asarlar qatoriga kiradi.
3. Aynan shu xususiyati bilan asar stilistik vositalarga juda boy desak mubolag’a bo’lmaydi. Asarni tahlil qilish davomida biz ularning bir nechta turlariga murojat etdik. Masalan : metafora, metonimiya, sinekdoxa, kinoya, allegoriya, ishora va boshqalar. Ularning hammasiga misollar orqali tahlillar keltirib o’tdik.
4. Tarjimon Rustam Jabborov tomonida tarjima qilingan bu asar tarjima qilish jarayonida tog’ridan to’g’ri tarjima usulidan foydalangan bo’lib, asarni ingliz tilidan to’g’gri o’zbek tiliga tarjima qilganlar va bu jarayonda tarjimaning turli usullarida badiiy tarjima, ma’no jihatidan tarjima, shakliy tarjima, vaziyatga qarab tarjima kabi turlaridan foydalanganlar.
5. Asarni tahlil qilish davomida metaforalarning ingliz tilidagi 15 xili bilan ishlandi. O’zbek tilida avvalo metaforalarning 3 jihatdan : shakl, tilshunoslik va adabiyot nuqnai nazaridan turlari ko’rib chiqildi va ular ham o’z navbatida ichki bo’linishlarga bo’lindi. Shakl jihatidan - so’z, so’z birikmasi, ibora, gap, matn metaforalari bilan solishtirildi. Tilshunoslik nuqtai nazaridan – shakliy, belgili, harakatli turlari bilan ishlandi. Adabiyot nuqtai nazaridan – vositali va vositasiz shakllari bilan qiyoslandi

6. Bitiruv malakaviy ishimizning asosiy maqsadi asardagi metaforalarning o'zbekcha tarjimada berilishi bo'lganligi sababli biz asardagi metaforalarning ayrimlarining tahlilini qilib, o'zbekcha tarjimada berilishini kuzatib bordik. Misollarni solishtirish jarayonida biz tarjima jarayonida yuz bergan ayrim kamchiliklarga ham duch keldik. Buni tarjimonning kamchiligi emas balki bizning, millatimizga xos bo'lmagan ayrim cheklanishga xoslik deb hisoladik. Shunga qaramasdan asar ma'no va mazmun jihatidan mos qilib tarjima qilingan degan xulosaga kelindi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A “Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi 1875PQ. 2012. “Ma'rifat” gazetasi № 99. – B.1-2.
2. Karimov I.A. “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”. – T., 2008.
3. Karimov I. A, “O'zbekiston iqtisodiy islohotni chuqurlashtirish yo'lida”, -- Toshkent: O'zbekiston, 1995, 140-bet.
4. Habeggar Alfred, “The life of Emily Dickenson”, - New York, 2001.
5. Hosseini, Khaled, *Dreaming in Titanic City*, Riverhead Books.
6. Hosseini, Khaled, *The Kite Runner*, Riverhead Books, 2003.
7. Katsoulis, Melissa, "Kites of Passage" in the *Times* (London), August 30, 2003, Features section, p. 17.
8. Noor, Ronny, Review of *The Kite Runner*, in *World Literature Today*, Vol. 78, Nos. 3-4, September-December 2004, p. 148.
9. O'Brien, James, "The Sins of the Father," in the *Times Literary Supplement*, October 10, 2003, p. 25.
10. Review of *The Kite Runner*, in *Publishers Weekly*, Vol. 250, No. 19, May 12, 2003, p. 43.
11. Robert P.L, “A companion to American fiction”, New York: 1912, p 211.
12. Safarova M F “Ingliz tilidan o'zbek tiliga badiiy tarjimaning o'ziga xos xususiyatlari” . Magistirlilik desirtatsiyasi. Urganch-2015 yil.
13. Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent, 1983.
14. Stuhr, Rebecca, Review of *The Kite Runner*, in *Library Journal*, April 15, 2003, p. 122.
15. The Kite Runner. Hosseini Khaled..New York, NY Books, 2003.
16. Xolid Husayniy “Shamol ortidan yugurib” /tarjimon Rustam Jabborov.- Toshkent: yangi asr avlodi, 2016.
17. Xudoyorova D.-Navoiy DPI “Badiiy tarjimada filologik taxlil masalasi”
18. Collins Dictionary of English Language. – London; Glasgoe, 1999. –

1690 p.

19. Dictionary of English Colloquial Idioms. - / Wood F.T. and Hill R. – London: Papermark, 1990. – 384 p.

20. Fowler H. W. A dictionary of modern English usage. – 2 ed./ Rev. by Cower E. – Oxford; New York: Oxford Univ. Press, 1996. – 725 p.

21. Hornby A.S. Oxford student's dictionary of Contemporary English. – Oxford: Oxford University press, 1984. – 769 p.

22. www.ziyonet.uz

23. www.wikipedia.uz

24. http://www.elib.bsu.by/bitstream/123456789/46792/1/holevinskaya_2011_sbornik7_tom2.pdf

25. <http://www.dissercat.com/content/metaforicheskoe-modelirovaniegendernoi-oppozitsii-v-russkom-yazyke>

26. <http://www.lib.csu.ru/vch/210/011.pdf>

27. <http://www.twirpx.com/file/443880>

28. <http://www.livelib.ru/book/1000535315>

29. <http://www.lib.tsu.ru/mminfo/000349304/10/image/10-022.pdf>

30. <https://www.gazeta.uz/oz/2019/04/03/5-tashabbus/>